

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr

ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchisi

KAMALOVA LOYLO NURILLAYEVNA ning
**«UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA ABDULLA QODIRIY
HAYOTI VA IJODINI O‘QITISH USULLARI »**

mavzusidagi

BITIRUV - MALAKAVIY ISHI

NUKUS - 2018

Malakaviy bitiruv ishi O‘zbek adabiyoti kafedrası yig‘ilishining 2018-yil
«___» _____dagi №__ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:

f.f.n., dots. A.Abdiev

Kafedra mudiri:

f.f.d.prof. K.Qurambayev

Ilmiy rahbarlar:

f.f.n., dots. O.Duysenbayev

katta o‘qituvchi Sh.Aldasheva

Bitiruvchi:

L. Kamalova

Kamalova Loyloning « Umumta’lim maktablarida Abdulla Qodiriy hayoti va
ijodini o‘rgatish usullari» mavzusidagi malakaviy-bitiruv ishiga Davlat attestatsiya
komissiyasining qarori bilan «___» ball («___%») qo‘yildi.

«___» _____ 2018-yil

DAK kotibasi:

Sh. Aldasheva

MUNDARIJA

KIRISH. Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi.....4-8

I BOB. ABDULLA QODIRIY HAYOTI VA IJODI HAQIDA

1.1. Umumta'lim maktablarida Abdulla Qodiriy tarjimai holini o'rganilishi.....9-14

1.2. 5–sinfda Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasini o'rgatish.....15-19

II BOB. ABDULLA QODIRIY HAYOTI VA IJODI’NI O’QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

2.1. 7–sinfda “Mehrobdan chayon” romanidan keltirilgan parchani o'rganish.....20-24

2.2. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanini 7–sinfda mustaqil o'rganish.....25-30

III BOB. TA’LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI.

3.1. Abdulla Qodiriyning tarjimai holini o'qitish bo'yicha dars ishlanmasi....31-38

3.2. 9–sinfda Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanini o'rganishga doir tavsiyalar.....39-58

XULOSA59-60

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR61-64

KIRISH

“Yurtimizda Abdulla Qodiriy asarlari kirib bormagan birorta ham xonadon bo‘lmasa kerak. U faqat o‘zbeklarning emas, balki Turkiston xalqlarining ham sevimli adibi, ozodlik va istiqlol kuychisidir”.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov

Milliy istiqlol g‘oyalarining hayotimizga tobora chuqur kirib borayotgani ta’lim tizimidagi islohotlarni ham belgilab bermoqda. Erishilgan milliy davlat mustaqilligini mustahkamlash, istiqboldagi buyuk davlatni barpo qilish, avvalo, yoshlarni milliy g‘oya va mafkura ruhida, Vatanning haqiqiy fidoyilari qilib tarbiyalash ta’lim-tarbiya tizimi oldidagi muhim tarixiy vazifalardandir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A Karimov: “Ma’naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash, ta’lim va maorif tizimini takomillashtirish, milliy uyg‘onish g‘oyasi asosida ma’naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazish – davlatimizning eng muhim vazifalaridan biridir”¹, – degan edi.

Umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb–hunar kollejlari ham yozuvchi-shoirlar ijodini chuqur o‘rganish emas, ko‘p sonli ijodkorlarni o‘qitish an’anasi kuzatiladi. Bizning fikrimizcha, buning o‘rniga, ijodkorlar sanoqini kamaytirib, o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida munosib hissa qo‘shgan shoir-u ijodkorlar yaratgan durdona asarlarni chuqurroq o‘rganish kerak, deb o‘ylaymiz. Masalan: Bizlarga ma’lumki, sevimli yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi umumta’lim maktablarida o‘tilib kelinadi. Hozirgi kunga kelib esa yangi programma bo‘yicha yozuvchining hayoti va ijodi o‘tishga mo‘ljallangan reja quyidagichadir: V sinf. Adabiyot darslik–majmudan o‘rin olgan Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o‘rganish uchun-1soat, “Uloqda” hikoyasini o‘rganish uchun-1soat , jami: 2 soat ajratilgan. Bunda hikoya haqida nazariy tushuncha ham shu 2 soat ichiga kiritilgan.

VII sinf. Adabiyot darslik–majmudan o‘rin olgan Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o‘rganish uchun– 1soat, “Mehrobdan chayon” romanidan keltirilgan

¹Inson baxt uchun tug‘iladi: O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning hikmatli so‘zlaridan / Tuzuvchilar: G‘aniyev D, G‘afurov Z. – T.: Sharq, 2001. – 49 b.

parchani o'rganish uchun-2 soat. Mustaqil o'qish uchun "Mehrobdan chayon" romanidan keltirilgan parcha uchun 1-soat, jami: 4 soat ajratilgan.

IX sinf. Adabiyot darslik-majmudan o'rin olgan Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o'rganish uchun- 1soat, "O'tkan kunlar" romanidan keltirilgan parchani o'rganish uchun-3 soat. Jami: 4 soat ajratilgan.

Demak, Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi umumta'lim maktablarda 5-7-9-sinflarda o'qitiladi, bizningcha esa uni boshlang'ich sinf dasturiga kiritish kerak. Deylik, birinchi sinfda adib asarlaridan hikmatli gaplar, parchalar o'qitilsa bo'ladi. Keyingi sinflarda ham bolaning yoshi, dunyoqarashiga mos keladigan asarlari berib borilsagina, Abdulla Qodiriy haqida o'quvchilar faqat ma'lumot olib qolmay, adib haqida batafsil tushunchaga ega bo'ladilar.

Umumta'lim maktablari adabiy ta'limida nasriy asarlarni o'rganishning o'z maqsad va vazifalari mavjud. Shu o'rinda, A.Zunnunovning "Badiiy asar tahlili metodikasi" nomli qo'llanmasida umumta'lim maktablarining 5-9-sinflardagi tahlilning o'zaro farqli jihatlari, ifodali o'qish – badiiy asarni o'zlashtirishning faol usuli ekanligi, asarlarni tahlil qilishda ko'rgazmalilikdan foydalanish kabi masalalar yoritilganini eslab o'tish joiz.

Shu jihatdan, turli sinflardagi adabiy tahlilning maqsad va vazifalari o'zaro farqlanadi. Ammo adabiy asarni o'rganishda xususiy holatlardan tashqari umumiy holatlar ham bo'ladi.

Darslik mualliflari esa badiiy tahlilga kirishishda o'qituvchidan quyidagilar talab etilishini alohida ta'kidlaydilar:

a) darsni tashkil qilish;

b) o'quvchilarning emotsionallikni anglash faoliyatini o'stirish, asarni o'qish ko'nikmalarini taraqqiy ettirish usullarini aniqlab olish². Darsning maqsad va vazifalarini belgilab olish zarurligi tushunarli, ammo barcha holatlarda tahlil usullarini oldindan aniqlab olishning iloji bormikan? Biz shu to'g'ridagi mulohazalarimiz va takliflarimizni ilmiy tadqiqot ishimizda fikrlashdik.

²Zunnunov A. Badiiy asar tahlili metodikasi –T.: O'qituvchi, 1989. – 120- 159 betlar.

Muammoming o'rganilganlik darajasi: Ilmiy ishimizni yozishda o'zbek abiyotining zabardast vakillaridan biri Abdulla Qodiriy asarlarini umumta'lim maktablarida o'qitish usullarini zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda o'qitishning yangi usullari haqida ilmiy izlanishlarda erishilgan xulosalariga asoslanganmiz.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi: «Umumta'lim maktablarida Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o'qitish usullari» mavzusidagi malakaviy-bitiruv ishi Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI filologiya fakulteti o'zbek adabiyoti kafedrasining «O'zbek va turkiy xalqlar adabiyotining o'zaro aloqasi, taraqqiyot tendensiyalari» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bevosita bog'liq. Sababi, Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o'rgatish hech qachon eskirmaydigan mavzu. Nafaqat o'quvchilar, talabalar balki barcha insonlar adib asarlaridagi nasihat-o'gitlardan faqat yaxshilik, ezgulik va shu kabi ajoyib fazilatlarni o'rganishi mumkin deb o'ylaymiz.

Bitiruv ishining maqsadi: Tadqiqot ishida umumta'lim maktablarida Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalangan holda yoritish va ta'lim shakllarini ishlab chiqish bosh maqsad qilib qo'yilgan.

Bitiruv ishining vazifalari: Ishda maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutildi:

– “Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini”ni o'qitishning ustuvor yo'nalishlarini o'rganish;

– ta'lim tizimida qo'llanilishi yo'lga qo'yilayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'rganish;

–ko'zda tutilgan dars mashg'ulotlarni maqsadli tashkil etishning ahamiyatini yoritish;

– mashgʻulotlarda innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi va oʻziga xosliklarini yoritib berish;

Bitiruv loyiha ishi obyekti – “Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini”ni oʻqitishda innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish jarayoni.

Bitiruv loyiha ishining predmeti – “Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi”ni oʻqitishda innovatsion pedagogik texnologiyalaridan foydalanish mazmuni va amaliy-texnologik jihatlari.

Tadqiqot metodlari: bitiruv ishiga tegishli pedagogik, ilmiy va metodik adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatish.

Tadqiqotning metodologik asoslari: Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Taʼlim toʻgʻrisida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», tadqiqot mavzusiga oid Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Farmonlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Davlat taʼlim standartlari, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining Nizomlari va buyruqlari; Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi haqidagi ilmiy qarashlar

Ishning ilmiy yangiligi: Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarida boʻlayotgan tezkor oʻzgarishlar taʼlim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal taʼlim tizimi orqali respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda hal qiluvchi rol oʻnaydi. Shuning uchun taʼlimda eng muhim strategik yoʻnalish boʻlib taʼlim muassasalarining innovatsion faoliyati hisoblanadi. Bu esa barcha taʼlim muassasalarida, ayniqsa ijodkor, yuqori salohiyatli mutaxassis pedagog kadrlarni tayyorlovchi oliy taʼlim orqali intellektual mulkni tayyorlash va intellektual mulk tizimini innovatsion faoliyat koʻrinishida amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitda o'quvchilarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda.

O'qituvchi adabiyot darslarida o'tiladigan mavzuga qarab o'qitish metodikasini oldindan belgilashi, uning rejasini tuzib chiqish kerak. Masalan, ma'ruza, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, davra suhbat, bahs-munozara, muammoli vaziyat va boshqa turlaridan maktab o'quvchilarini va oliygoh talabalarini o'qitishda foydalanish mumkin. Adabiyot darslarida ba'zi asarlarni o'qitishda interaktiv usullardan foydalanish, shuningdek, mavzuni guruhlariga bo'lib tahlil qilish, har bir o'quvchini u yoki bu timsolga fikr bildirishi darsni jonlantiradi, darsning sifat va samarasini oshirib, unga o'ziga xos mazmun beradi. Qolaversa, o'quvchini mustaqil ishlashga, asarga ijodiy yondashishga o'rgatadi. Bu hozirgi kun talablaridan kelib chiqib, darsda yangi pedagogik texnologiyalarni yo'lga qo'yishga yordam beradi. **Abdulla Qodiriyning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni adib hayoti va ijodini umum ta'lim maktablarida o'qitishning ilg'or usullari ilmiy ish yangiligini tashkil etadi.**

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: tadqiqot natijasida "Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi" mavzusini o'qitishda mashg'ulotlarni tashkil etishning metodik, texnologik jihatlari takomillashtiriladi.

Ishning tuzilishi. Bitiruv tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. ABDULLA QODIRIY HAYOTI VA IJODI HAQIDA

1.1.Umumta'lim maktablarida Abdulla Qodiriy tarjimai holining o'rgatilishi.

Umumta'lim maktablarida Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi 5–7–9 sinflarda 1soatdan o'tiladi. Xo'sh, bu sinflarda yozuvchi hayoti va ijodi bir xilda o'rganiladimi? Biz ushbu masalaga o'z imkoniyatimiz darajasida to'xtalmoqchimiz.

Shu o'rinda, metodist olim Q. Yo'ldoshev "Adabiyot o'qitishning ilmiy–nazariy asoslari" nomli qo'llanmasida, shu to'g'ridagi fikrlarni keltirishni lozim ko'rdik : "...adabiyot darslarida hamisha yozuvchilarning tarjimai hollariga oid ma'lumotlar beriladi. Bu ma'lumotlar, ko'pincha, bir necha sinflarda takror–takror keltiriladi va biri–biridan jiddiy farq qilmaydi. Yuqori sinflarda esa tarjimai holga juda katta o'rin ajratilib, adibning hayoti va ijod yo'liga ancha batafsil to'xtalinadi. Shu vaqtga qadar amalda bo'lib kelgan darsliklardagi bu xil ma'lumotlarda asosiy e'tibor adibning individual qiyofasini, inson sifatidagi o'ziga xosligini, ijodkor sifatidagi ruhiyatini ochishiga emas, balki ayni shu jihatlarni ko'rsatmaslikka xizmat qilar edi. Shuning uchun ham o'quvchilarimiz adiblarni faqat ismu sharifi va yozgan asarlaridangina farqlay olishardi, xolos,"³ – deb yozgan va barchaning diqqatini yozuvchi hayoti va ijodini o'rgatishdagi asosiy kamchiliklarga tortgan.

Adabiyotshunos olim B. To'xliyev esa, "Adabiyot o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasida ham yozuvchi tarjimai holini o'rgatish masalasiga tegishli quyidagi mulohazalarni bayon qilgan: "Badiiy asarlarni o'rganishda uning muallifi haqidagi ma'lumotlar ham ayrica ahamiyat kasb etadi. Bu ma'lumotlar ko'pincha, asarning g'oyaviy badiiy mazmunini teranroq anglashda, asarning ijtimoiy–estetik mohiyatini to'g'ri belgilashda yordam beradi. Mazkur ma'lumotlar qayerlardan olinadi? Ularni adiblarni o'zlari yozib qoldirgan tarjimai hollardan, adib haqida aytilgan zamondoshlari, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish–bilishlari yoki yozma holida yetib kelgan manbalardan olinishi mumkin. Bu

³ Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy–nazariy asoslari. –T.: O'qituvchi, 1996. – 63-b.

boradagi eng yaxshi omillardan yana biri adib va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan materiallardir”⁴.

Darhaqiqat, mustaqillik davri adabiy ta’limining yetakchi xususiyatlarini o’quvchi ma’naviyatini yuksaltirish, ijodkorning hayoti haqidagi ma’lumotlarni o’rgatish vositasida yoshlarda ham yaratuvchilik, bunyodkorlik xislatlarini tarkib toptirish, ularning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish, ijodkor shaxsiga xos namunaviy sifatlar ta’sirida o’quvchilarning ilmga, san’at va adabiyotga mehrini, hurmatini o’stirish; muayyan ijodkor ruhiyatini his qilish vositasida o’quvchilarni o’zga odamlar qalbini anglashga o’rgatish, o’zgalar dardini anglashga yo’llash kabilar tashkil etdi. Adabiy asar va uning yaratuvchisini o’quvchi o’z tuyg’ulari, fikr–mulohazalari orqali tanishi va anglashi lozimligi yangilangan pedagogik tafakkur tamoyiliga aylandi. Chunki ana shunday yo’l bilangina san’at asarlariga nisbatan o’quvchilarning nuqtai nazari, munosabati va muhabbatini shakllantirish mumkin.

Albatta, yuqori sinflarda, 7–9 sinflarda yozuvchining tarjimai holini o’rganish 5–sinfdan o’rganilish jihatidan keskin farq qiladi. Chunki bunda, albatta o’quvchini yoshi hisobga olinadi. Demak, mana shu holatning o’zi ham yozuvchi tarjimai holini sinflar kesimda o’rganishimizni to’g’ri ekanligini dalillaydi. Shu o’rinda, avvallo, yozuvchi hayoti va ijodini o’rgatishda ayni jarayonni tashkil etishning texnologik usullari xususida to’xtalmoq lozim. Qaysi sinfda o’rganilishidan qat’i nazar, o’quvchilar yosh nuqtai nazaridan kelib chiqib, o’qituvchi:

- ijodkor tarjimai holiga oid o’quvchilar uchun ahamiyatli bo’lgan qiziq muammoni o’rta tashlashi;

- ijodkor asarlari asosida bahs–munozaraga turtki beruvchi fikrlarni uyg’otib, qarama–qarshilikni bo’rttirib, tanqidiy mulohazalarga keng o’rin berishi;

- ta’limni qo’yilgan muammodan kelib chiqib, ijodiy tashkil etishi, kerak bo’ladi.

⁴ To’xliyev B. Adabiyot o’qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 113-b.

Bizningcha, shunday holatdagina, o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligida nafaqat yangi bilimlar o'zlashtiriladi, balki bunda o'quvchi o'zicha kashfiyotlar qilishi uchun sharoit yaratiladi. Bunday faoliyat o'quvchi uchun alohida shaxsiy qadriyatga ega va u shu sababli ijodkorlikka intiladi, yaratuvchilik ishtiyoqini his qiladi.

Adabiy ta'limning zamonaviylik tamoyili ham texnologik, ham muammoli izlanishga oid yondashuvni taqozo etadi. Lekin ularni o'z o'rnida, aniq maqsad asosida qo'llash lozim. Shuni ta'kidlash joizki, ma'lum sharoitlarda bir mavzuni muammoli ta'lim usulida, ikkinchisini tadqiqot usulida o'zlashtirish qulaydir.

Shuni ham borki, muallif shaxsiyati uning asarlarida turli darajada aks etishi mumkin. Demak, o'quvchi "badiiy asarning ijodkor shaxsiyatining ifodachisi ekanligini anglab yetgandan keyingina asar mohiyati ham, uning muallifining nuqtai nazarlari ham o'quvchiga to'laroq va teranroq tushuniladi. Shundagina muallifning adabiyotga, jamiyatga, shu xalq va millatga bo'lgan muhabbati va xizmatlari to'la idrok etiladi"⁵.

Ko'rinib turibdiki, yozuvchining tarjimai holini o'rganish o'quvchini adib yaratgan asarlarni tushinishga, idrok etishga qaysidir ma'noda ta'sir ko'rsatar ekan, bunga albatta befarq qarab bo'lmaydi. Binobarin o'quvchi yozuvchining ichki dunyosi bilan yaqindan tanish bo'lsa, uning shaxsiy fazilatlari, ijodiy yo'li bilan unga nisbatan hurmat, muhabbat hissi paydo bo'ladi. Shu sababdan yozuvchi tarjimai holini o'rganishda uni o'zi haqidagi ma'lumotlar bilan birga, qalamkash ijodkorlar va adabiyotshunos olimlar tomonidan berilgan adibning hayot yo'li, badiiy uslubi haqidagi fikrlarga tayanish ham yaxshi samara beradi. "Chinakam badiiy asar–, degan edi A.Zunnunov– katta ijodiy mehnat mahsuli bo'lib, ulug' yozuvchilar ijodining o'zi "butkul bir dunyo"dir. O'quvchilarni ana shu dunyo ichiga olib kirish uchun, avvalo adibning hayoti, shaxsi, g'oyaviy–ijodiy izlanishlari to'g'risida o'quvchilarga hikoya qilib berish muhim ahamiyatga ega. Chunki, har bir yozuvchining o'zicha fikrlash, yozish usuli bo'ladi. Shuning uchun

⁵ To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 117 b.

badiiy ijod jarayonini o'rganish, yozuvchining ijodiy lobartoriyasiga kirish, uning xos sirlari bilan tanishish lozim. Bu bilan "uslub" tushunchasini, ijodiy jarayonni, yozuvchining individual uslubini chuqur, puxta o'zlashtirishga zamin hozirlanadi"⁶.

Yozuvchining tarjimai holi haqidagi ma'lumot o'quvchilar dunyoqarashini shakllantiradi, axloqiy fazilatlarini shakllantiradi. Chunki, yozuvchi o'z jamiyatining ilg'or fikrli kishisi bo'lib, uning tarjimai holi ijodini, ijodi esa uning hayot yo'lini bilib olish juda muhim hisoblanadi. Shu tamoyildan kelib chiqib qarasak, Abdulla Qodiriy faqat asarlari bilan emas, balki bosib o'tgan hayot yo'li, o'zining yaxshi fazilatlarini bilan ham o'quvchilarga katta ta'sir ko'rsatadi.

5–sinfdan adabiyot darsligida Abdulla Qodiriy tarjimai holini o'rganishga 1–soat vaqt ajratilgan. "Bolalikning beg'ubor olami" deb nomlangan bobda mualliflar sodda tilda o'quvchilarga adib tarjimai holi haqida ma'lumot berishga harakat qilishadi. Biz, endi 5–sinfdan yozuvchi tarjimai holini o'rganishga bag'ishlangan bir soatlik dars ishlanmasini beramiz.

Mavzu: Abdulla Qodiriy tarjimai holini o'rganish

I. Darsning maqsadi: Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi haqida o'quvchilarga ma'lumot berish, hamda ularning bilim doirasini kengaytirish.

II. Darsning metodi: [Og'zaki bayon, tushintirish. Suhbat, savol – javob.](#)

III. Ko'rgazmalilik: yozuvchining rasmi, adabiy merosi haqida tayyorlangan slayd kitoblari va gazeta jurnallardan olingan manbalar.


IV. Tashkiliy qism: Salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarning darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

V. Yangi mavzuning bayoni:

"Aziz o'quvchi! Siz bu nomni ko'p eshitgansiz. Balki buvilaringiz yoki ota-onangiz muqovasiga "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" deb yozilgan kitoblarni sizga


⁶ A.Aliyev. Maktabda yozuvchi uslubini o'rganish.-T.: O'qituvchi, 1977, 17-bet

ko'rsatishgandir, ularning ayrim voqealarini hikoya qilib berishgandir. Televizor ekranlarida, gazeta va jurnallar sahifalarida Abdulla Qodiriy asarlari asosida ishlangan badiiy va videofilmlarni, adibning o'zi haqidagi hujjatli filmlarni tomosha qilgansiz, maqola va xotira hikoyalarni o'qigansiz. Uyingiz va maktab kutubxonasining kitob javonlarida eng ko'rimli joyda o'sha kitoblar terib qo'yilganini, ma'naviyat xonalari, adabiyot sinfiarida yozuvchining katta-kichik suratlaridan iborat plakatlar osig'liq turganini ko'rgansiz. Juda bo'lmaganda, o'zingizning ismingiz yoki do'stlaringiz ismlari Otabek, Kumush, Anvar yoki Ra'no bo'lishi mumkin. Shuning o'ziyoq sizni ulug' o'zbek adibi Abdulla Qodiriyga daxldor ekanligingizni, uning kenja avlodlaridan ekanligingizni anglatadi"⁷—, deya yangi mavzuni boshlar ekan o'qituvchi o'qivchilarga savollar bilan murojaat qilishi mumkin:



Bu savollarni javobini o'quvchilar bilan suhbat asosida ochib berilishi, darsning samaradorligini oshiradi.

⁷S.Ahmedov, Qosimov B,R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. Adabiyot 5-sinf uchun darslik—T.: Sharq, 2007, 129-6er



Shundan so‘ng, o‘qituvchi yozuvchi haqida eng kerakli ma’lumotlarni bermog‘i kerak, ya’ni 1937–yillarga kelib yana avj olgan qatag‘on siyosati bilan milliy ziyolilarni — xalqning o‘zligini tanitishga xizmat qiluvchi adib, shoir, olim va muallimlarni, boshqa ko‘plab soha kishilarini qurbon qilgani, bular orasida Abdulla Qodiriy ham borligi unga nohaq yopishtirilgan “xalq dushmani” degan tuhmat bilan qamoqqa olinib, uzoq qiynoq va so‘roqlardan so‘ng 1938–yil 4–oktabrda otib o‘ldirilangligi, lekin XX asrning 50–yillari oxiri — 60–yillarida Abdulla Qodiriy nomi oqlanganligi, lekin faqatgina mustaqillikka erishganidan so‘ng bu asarlar asl holida to‘liq nashr yetilganligi o‘quvchilarga ongiga singdirimog‘ligi lozimki, bu o‘quvchilarni mustaqiligimizga bo‘lgan munosabatini shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Mustaqillik sharofati bilan yozuvchi birinchi bo‘lib Mustaqillik ordeni va Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Bu tomonlarni e’tirof etilishi yozuvchining asarlarini o‘quvchilar ongida yanada to‘g‘ri talqin qilinishiga olib keladi. So‘ngra keyingi dars yozuvchining “Uloqda” hikoyasi bo‘lgani uchun hikoya haqida nazariy ma’lumot berib o‘tish kerakki, o‘quvchi hikoyani o‘qiganda uni anglay olsun.

YI. Uyga vazifa berish: “Uloqda” hikoyasini o‘qib kelish.

1.2. 5– SINFIDA ABDULLA QODIRIYNING “ULOQDA”

HIKOYASINI O‘RGATISH

Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab adabiy ta’limni milliy o‘zanlariga qaytarish masalasi milliy ta’lim tizimini yaratish, uzluksiz ta’limni isloh qilish kabi jiddiy muammolar yechimiga qaratilgan davlat qarorlari, hujjatlar va qonunlar asosida hal qilina boshlandi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni natijasida uzluksiz ta’limning yangi tizimi yuzaga keltirildi, har bir ta’lim bosqichini zarur o‘quv va metodik adabiyotlar, malakali mutaxassislar bilan ta’minlash masalasi davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Adabiyot o‘qitish metodikasi fanining yangi davri – milliy mustaqillik sharoitidagi maqsad va vazifalari, ob’yekti, yechimtalab muammolari mohiyatan o‘zgardi.

Xususan, ijtimoiy–ma’naviy hayotga yangicha nazar bilan qarash, ma’naviy merosimizga hurmat bilan, milliy istiqlol g‘oyasiga tayanib munosabatda bo‘lish, adabiy hodisalarga ham, ijodkor yaratgan adabiy asarlarga ham sog‘lom munosabatni qaror toptirish; ularni yangi asoslarga tayanib baholash; badiiy asarlarni tahlil va talqin qilishda estetik tamoyillarga tayanish ustuvor yo‘nalishni tashkil etdi.

“Badiiy asar – xoh u lirika, xoh nasr, xoh drama bo‘lsin – yozuvchining ijod mahsuli. Farzand ota–onasiga o‘xshamasligi mumkin emas. Badiiy asar tahlil, talqin qilinganda, tabiiyki, yozuvchining ruhiy holati, kayfiyati hisobga olinadi... Uni biografik metod yoxud badiiy asarga yozuvchi holati nuqtai nazaridan yondashish deyiladi”, – [deb yozadi adabiyotshunos A.Rasulov](#)⁸. Ayni paytda har bir ijodkorning o‘ziga xos badiiy olami tomon o‘quvchini yetaklash, so‘z sehrini tuydirish, go‘zallik alomatlarini his qila oladigan, uni qadrlaydigan insonni voyaga yetkazish adabiy ta’limning bosh maqsad–muddaosi hisoblanadi.

⁸ Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. –T.: Fan, 2006. – 75-b.

Yuqorida aytganimizdek, V sinf “Adabiyot darslik–majmu”dan o‘rin olgan Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o‘rganish uchun– 1soat, “Uloqda” hikoyasini o‘rganish uchun–1soat, jami: 2 soat ajratilgan. Bunda hikoya haqida nazariy tushuncha ham shu 2 soat ichiga kiritilgan. Yozuvchini hayoti va ijodini alohida o‘rganganligimiz sababli bevosita uni “Uloqda” hikoyasini o‘rgatish to‘g‘risida o‘z tavsiyalarimizni beramiz. Avvalo texnologik xarita tuzib olamiz.

Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi darsining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Ta’lim beruvchi
1- Tashkiliy qism (5–daqiqqa)	a) salomlashish; b) davomat nazorati; muhim yangiliklar (ingliz tilida)
2- O‘tgan darsni so‘rash (10 daqiqa)	Yozuvchi qanday oilada dunyoga keldi? Qanday maktablarda o‘qidi? She’rlarini nomini bilasizmi? Qanday hikoyalar yozgan? Peasasini nomi? Qanday romanlari bor? Qachon, qanday vafot etgan? Qachon, qanaqa mukofatlar olgan?
3–asosiy bosqich. Yangi darsni o‘tish (20 daqiqa)	.Adabiy talqindan foydalanib, o‘quvchi tomonidan badiiy asar tarkibining to‘la tasavvur etilishiga erishish vositasida ijodkorning hayot hodisalariga munosabatini o‘rgatish. Bu jarayon samaradorligini ta’minlashga yordam beruvchi an’anaviy va noan’anaviy metod hamda usullardan foydalanish yo‘llarini yoritish. O‘quvchilarda tahlil malakasini takomillashtirish. O‘quvchini yozuvchiga kechinmadosh qilish orqali insonni

	tushunishga yo'llash, ularda tuyg'udoshlik xususiyatini shakllantirish omillarini belgilash orqali o'quvchi ma'naviyatini tarbiyalash mumkinligini ilmiy– nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish.
4–bosqich. yakuniy bosqich (10 daqiqa)	Mustahkamlash savollari ustida ishlash va o'quvchilarni baholab, vazifa berish.

I. Darsning maqsad va vazifalari:

a) **Ta'limiy maqsad:** O'quvchilarga Abdulla Qodiriy hikoyalarida realistlik xususiyatlarning “Uloqda” hikoyasi misolida tushuntirib berib, o'quvchilarda bilim va ko'nikma hosil qilish .

b) **Tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarning o'z yurtidan g'ururlanish ona Vatanga sadoqatli, aqlan barkamol, ruhan sog'lom, komil inson bo'lib yetishishiga undash;

v) **Rivojlantiruvchi maqsad:** O'quvchilarni og'zaki nutqini tafakkur, xotira idrok mashqi orqali rivojlantirish, o'quvchilarni adabiyot faniga qiziqishlarini oshirish, yozuvchi va shoirlik kasblariga yo'naltirish.

g) **Vosita:** A. Qodiriy portreti, adib asarlari, darslik asosida ko'rgazmali qurollar, slayd taqdimoti, tarqatma testlar, savollar

d) **Fanlar aro bog'liqlik:** Milliy istiqlol go'oyasi, ona tili tarix

e) **Nazorat:** og'zaki nazorat, o'z–o'zini nazorat qilish

j) **Kuzatilgan natijalar:** “Uloqda” hikoyasi tahlili vositasida o'rganilayotgan matn mohiyatiga kirib borib, ijodkorning badiiy tafakkur tarzi va yaratuvchi shaxsga xos xususiyatlarini o'quvchiga anglatish usullarini belgilash.

z) **Baholash:** rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash

II. Vazifa: “Uloqda” hikoyasi o'rgatishda adabiy tahlil hamda talqindan foydalanish masalasini ilmiy–metodik muammo sifatida tadqiq etish.

III. O'quv jarayonining mazmuni: Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi yangi o'zbek adabiyotidagi birinchi hikoyadir. Hikoya 1915–yilda yozilib, 1916–yilda Toshkentta alohida kitobcha shaklida nashr etildi. Hikoyada Turg'un ismli sizlarga tengqur yigitchaning tilidan aytin beriladi. Otasidan uloq tomoshosiga ruhsat olgan Turg'un astoydil tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Qashqa toychog'ini yuvib–tarab, o'zi ham hayit bayramlarda kiyinadigandek yasanib, tomoshaga o'tlanadi. Ana shunday jiddiy tayyorgarligi uchun bola kattalardan ham tengqur do'stlaridan ham “Turg'un chavandoz” degan maqto'v eshitgisi keladi, hurmati oshishini istaydi. U do'stlarini kim o'zarga ot choptirib yengadi. Ularning otlarig'a–o'zimmnikiga, kiyimlariga–kiyimimga qarab, o'zimni allaqancha yuqorida ko'raman. Haydar soqov tutila–tutila: “Kelinglar, bir chopturaylik”, dedi. Nurxon ko'nmasa ham yuganidan tortub olub ketdi. Chidab turib bo'lmas ekan: ularning ketidan qora qashqamg'a bir–ikki achchig' qamchi berub yuborishim bormi, jonvor o'n odumida ularni yo'lda qoldurib ketdi. Bularning barchasi Turg'unning uloq tomoshasiga astoydil tayyorlanganligi natijasi edi. Yozuvchi ushbu holatlar tasviri orqali Turg'undagi o'zi qiziqqan ishiga mas'uliyat va jonkuyarlari ibrat qilib ko'rsatadi. Uloq boshlanib, unga hakamlilik qiluvchi Orif sarkor fotiha bergach, bir soatlar o'tib, “ota bolani aka ukani tanimaydigan chang–to'zon” baqiriq–qiyqiriq avjiga minganda, “bosh yorilib, ko'z chiqqan bilan, otdan yiqilib, qo'l singan bilan” birovning ishi yo'q paytda birdan uloqchilar tinchib qoladi. Uloqchilardan biri –Esonboyni besh– olti ot bosib, ezib tashlagani ma'lum bo'ladi. Chalajon holda davradan olib chiqilgan chavandozning ko'p o'tmay joni uzilib, erta tongda janozasi o'qiladi.

Portret tasviri	Eng muhim tasvir vositalari	Qahramonlar ning ichki kechinmalari tasviri	Ular haqida muallif nuqtai nazari	Ular haqida boshqalar fikri

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- 1) Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi haqida gapirib bering.
- 2) "Uloqda" hikoyasida asosiy hikoyachi kim?
- 3) Hikoyadagi obrazlarga tavsif berish.
- 4) Asar mohiyatini muhokama qilish.
- 5) Hikoyachi nima uchun "Turg'un chavandoz" nomini olishga qiziqadi?
- 6) "Uloqda" hikoyasidan yozuvchi ko'zlagan maqsad nima.
- 7) Asardagi badiiy tasvir vositalari qaysi o'rinda ko'rinadi?

Darsni yakunlash: O'quvchila baholanib, uyga vazifa beriladi.

II BOB. ABDULLA QODIRIY HAYOTI VA IJODI”NI O’QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

2.1. 7–sinfda “Mehrobdan chayon” romanidan keltirilgan parchani o’rganish.

Ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda maktab adabiy ta’limining imkoniyatlari katta bo’lganligi uchun ham istiqbolga erishilgan kundan boshlab asosiy e’tibor uning samara beradigan usullarini ishga solishga qaratildi. “Turkiston” gazetasi muxbiri savollariga javob berar ekan, I. A. Karimov o’zbek xalqi bilan jahondagi boshqa xalqlarning ma’naviy–madaniy qadriyatlari o’rtasidagi uyg’unlik, ularni bir–biriga zid qo’yish mumkin emasligi haqida gapirib, shunday degan edi: “Umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o’rganib, o’z zaminimizga tatbiq etish lozim. Shu bilan birga milliy o’ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o’tgan an’alarimizni, hamisha iymon–e’tiqod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab, yuksaltirib borishimiz zarur”⁹.

Jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga mislsiz hissa qo’shgan bobokalonlarimizning ma’naviy merosini mustaqil O’zbekistonning kelajagi bo’lmish o’quvchi yoshlarga singdirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu ishni amalga oshirish ko’proq adabiyotning zimmasiga tushadi. Shuning uchun ham “Maktabda adabiyot o’qitishning bosh maqsadi sog’lom, e’tiqodli, o’zga insonning tuyg’ularini anglaydigan, o’tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o’z xatti–harakatlariga mas’ul bo’la oladigan komil insonning ma’naviy dunyosini shakllantirishdan iboratdir”,– deb alohida ta’kidlanadi “Umumiy o’rta ta’limning “Adabiyot” o’quv dasturi”da¹⁰. Komil shaxsning ma’naviy dunyosini shakllantirishda Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanini o’rni beqiyosdir.

7–sinfda Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidan parchalar o’qitiladi. “Mehrobdan chayon” romanini o’qish uch soatga mo’ljallangan bo’lib, birinchi soatda “Mehrobdan chayon” romanining yaratilishi tarixi haqida, undagi ijobiy va salbiy obrazlar haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Ikkinchi soatda esa

⁹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. –T.: O’zbekiston, 1999. 304-bet.

¹⁰ Ta’lim taraqqiyoti.–T.: 1999. 1-maxsus son, 166-bet.

romanning mazmuni “Qo‘rqinch bir jasorat” nomli romanidan parcha to‘liqligicha o‘quvchilarga yetkazib beriladi.

Maktabda badiiy asar o‘quvchining qabul qilish qobiliyati va badiiy tafakkur qonuniyatlariga asoslangan holda o‘rganilib, tahlil qilinadi. Buning uchun avvalo o‘quvchi romandan berilgan parchalar bilan to‘liq tanishib chiqqan bo‘lishlari kerak.

Shundan keyin “Mehrobdan chayon” romanidaning quyidagi tomonlari o‘quvchilar tomonidan o‘rganiladi:

- romanning fabula, syujet va kompozitsiyasidagi o‘ziga xosliklarni aniqlash;
- ushbu o‘ziga xosliklarni keltirib chiqargan estetik ehtiyojni tayin etish, ularning milliy ildizlarini tadqiq etish;
- ijtimoiy muhit tasvirini berishda yozuvchi tutgan yo‘lni aniqlash;
- muallif nugqining asosiy qirralarini belgilash, uning voqealarni va muhitni tushunish yo‘lini ko‘rsatib berishi;
- qahramonlar nutqidagi o‘ziga xosliklar vositasida yozuvchining milliy koloritni, muhitni yaratishdagi mahoratni ochish;
- qahramonlarga va voqealarga xarakteristika berish.

Mavzuning ilmiy metodik asoslari yuzasidan ma’lum bir reja asosida konspekt tuzishning ahamiyati kattadir. Dars konspekti tuzish ta’lim – tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga egadir. Quyida biz namuna ko‘rsatishga harakat qilamiz:

“Biz bugun sizlar bilan sevimli yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodini boshlaymiz. “Mehrobdan chayon” romanini boshlashdan oldin ham bir necha bor Qo‘qonga boradi, xon saroylari bilan yaqindan tanishadi, uylarni, ko‘chalarni ko‘zdan kechiradi. U yerdagi kishilar bilan suhbatlashib aniq materiallar yig‘ishga harakat qiladi.

Haram to‘g‘risidagi ma’lumotlarning aksariyatini Xudoyorxonning sevikli xotinlaridan biri bo‘lgan Roziya oyimdan yozib oladi. (nomlar birma–bir doskaga yoziladi).

Asardagi obrazlar haqida gapiradigan bo'lsak, ularning ko'pi yozuvchining o'z atrofida yashagan, uchragan kishilardir. Habibullo Qodiriyning "Otam haqida" asarida quyidagilar bayon qilinadi:

Xosiyat bibim bir kuni shunday deb qoldilar:

–Abdulla "Mehrobdan chayon"da To'laganni xo'p sirini yechgan.... Buxoroi Sharifga borib o'qigani bormi, imomlik qilgani, bachchalik qilgani bormi, hutba o'qigani bormi hammasini kitobga bitib sharmanda qilgan.

Albatta, bu bejiz aytilmagan, chunki Abdullaning To'lagan ismli do'sti bo'lgan. To'lagan Buxoroda o'n yillab qolib o'qiydi uning qanday o'qiyotgani, noshoyista ishlari Toshkentga eshitilib turadi. Nihoyat, u o'qishni tugatib Toshkentga qaytadi va qaysidir mahallada imomlik qiladi: 1) Bu faktlarga murojaat qiladigan bo'lsak, mulla Abdurahmon obrazi, xuddi shu kishining o'zidir.


¹¹Bundan tashqari yozuvchi asarga material to'plab bo'lgandan so'ng bir necha oylab ba'zan yillab ularni tartibga solib qanday qilib boshlash haqida o'ylab yurgan.

"Mehrobdan chayon"ni yozishga tayyorlandim. Hamma narsa taxt: romanning shakli, qahramonlari, voqealari, asarning qanday xotimalanishi ko'z oldimdan davra olib o'tib turadi. Ammo ishni qayerdan nimadan boshlash, davraga qanday qilib kirib borish masalasi meni o'ylatar, qiynar edi. Bir kuni tush ko'rdim, go'yo Mahmud domla go'sht, piyoz ko'tarib machitdan chiqib kelar va uzoqdan meni o'ziga imlab ularni ko'rsatar edi. Uyg'onib ketdim. Chunki ishning uchi topilagan romanning qanday–qayerdan boshlanishi aniqlangan edi,¹² – degan yozuvchining o'zi. Shunday qilib bu asar 1928 yil yozilib, 1929 yil kitobxonlarga taqdim etilgan".

Bu ma'lumotlarni yetkazgandan keyin o'qituvchi, bevosita roman qahramonlari xususida so'z yuritish mumkin. Bunda klaster usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

¹¹ H.Qodiriy. Otam haqida.-T.:, 1983 .-B. 125.

¹² O'sha asar



Xususan, asarning bosh qahramonlari hisoblangan Anvar va Ra'no obrazlari haqida, o'qituvchi, alohida – alohida to'xtalib, ularni yanada ravshanroq ochib berishga harakat qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Romandagi salbiy obrazlar Xudoyorxon, Abdurahmon domla, Shahodat mufti, Qanonshoh Mirzolarning xarakterlari, ularning yaramasliklari, iflosliklari haqida o'qituvchi idloji bormcha to'liq ma'lumot berimog'i lozim.

Romanning tili va badiiy xususiyatiga o'qituvchi o'quvchilarga romanning tili haqiqatan ham boy, bo'yoqli, sodda, ifoda kuchi zo'r, ommaga tushunarli ekanligi haqida o'qituvchi gapirish kerak, deb o'ylaymiz. Shu bilan birga, roman bo'yicha ishlangan kinofilmdan kichik bir video rolik ko'rsatilsa, yaxshi bo'ladi.

Endi, biz quyidagi savollar bilan o'qituvchining o'zi o'tgan darsni yakunlashi mumkin deb hisoblaymiz. Demak, mavzu bayon qilib bo'lingandan so'ng uni mustahkamlash uchun quyidagi savollarni berish mumkin:

- "Mehrobdan chayon" romani yaratilgan davr haqida nimalarni bilasiz? .

- "Mehrobdan chayon" romanining mavzusi g'oyaviy mazmuni nimadan iborat?
- Mulla Abdurahmon obrazi haqida fikringiz?
- Yozuvchi "Mehrobdan chayon" romanini boshlay olmay yurganida nima turtki bo'lgan?
- Xudoyorxon nutqida ko'proq qanday xislatlar ochiladi?
- Solih Maxdum nutqida nimalar fosh etilgan?
- Anvar va Ra'no obrazlarini yaratishda yozuvchi mahorati haqida gapiring.
- Anvar va Ra'no obrazlariga tavsif bering.
- Romandagi salbiy obrazlar haqida fikringiz.
- Romanning tili va badiiy xususiyati.
- Roman asosida ishlangan kinofilmni ko'rganmisiz, kinofilm qahramonlari sizda qanday taassurot qoldirgan?

Uyga vazifa: O'quvchilar o'zlari mustaqil ravishda rejalar tuzib "Mehrobdan chayon" romani asosida "Mehrobdan chayon" romani men yoqtirgan asar" mavzusida insho yozishni topshirish mumkin.

2.2. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanini 7–sinfdan mustaqil o‘rganish.

Ta’lim–tarbiya tizimida o‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish va mustaqil mutolaaga yo‘llash alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarga badiiy asarlarni mustaqil o‘qishga tavsiya qilish vositasida tahlil malakalari takomillashtiriladi.

O‘quvchini mustaqil o‘qishga tayyorlashda esa o‘qigan asarlarining adabiy estetik xususiyatlarini, ularda tasvirlangan voqea–hodisalar mazmunini idrok etish, mag‘zini chaqish, muayyan xulosalar chiqarishga; matn ustida ishlash va badiiy asarlarni mustaqil tahlil qilishga o‘rgatiladi. O‘quv dasturida mustaqil o‘qish uchun tavsiya qilingan badiiy asarlar yuzasidan suhbatlar o‘tkazish, bahs–munozara darslari tashkil etish, kitobxonlar konferensiyasida o‘quvchilarning faol ishtirokiga imkon yaratishga ta’limning keyingi bo‘g‘inlarida ham amal qilishi ta’kidlangan.


Umumta’lim maktablari adabiy ta’limida o‘quvchilarning mustaqil mutolaasini tashkil etishda dasturda ko‘rsatilgan asarlar bilan birga hozirgi kun adabiy hayotida katta voqeaga aylangan, bahs–munozaralarga sabab bo‘lgan badiiy barkamol asarlarni ham tavsiya qilish alohida ahamiyatga ega.

Agar o‘quvchilarning “mustaqil ish”, “mustaqil bilish faoliyati”, “o‘quv topshiriqlari” tushunchalari aniq chegaralansa, mustaqil ishlarning shaklini didaktik asoslab berishda, o‘quv topshiriqlarini esa maktab o‘quvchilarining mustaqil bilish faoliyatini tashkil etuvchi vosita, deb qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Uchta tushunchani bunday nisbatga olish muammoning didaktik, psixologik, tashkiliy tomonlarining har birini yaxlit ko‘rib chiqish imkonini beradi. U metodist va o‘qituvchilar uchun har bir muayyan holatda pedagogik g‘oya, o‘quvchilar faoliyati xarakteri va ularning mustaqil ishlarni tashkil etish hamda baholashga yordam beradi. Mustaqil ishlar tavsifnomasi 1–jadvalda o‘z aksini topgan.

Mustaqil ishlarning mohiyatini ifodalash uchun mustaqil ish deb hisoblanuvchi tushunchaning o‘zi nima ekanligini aniqlash juda muhimdir. Keng ma’noda tushuntirilganda o‘quvchining har qanday faoliyati (jumladan, o‘qituvchi bayoni (tushuntirishini tinglash, darslikni o‘qish, har qanday savollarga javob berish) mustaqil faoliyatdir. Biroq, mazkur atamani o‘quvchilarning maxsus

uyushtirilgan faoliyati, ya'ni havaskorlik faoliyati bilan ham bog'lash mumkin. Ular o'rtasidagi tafovut olimlar tomonidan atroflicha tahlil etilgan. Uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: a) o'qituvchi tomonidan yordam bo'lmasligi; b) o'quvchilar tomonidan ishning maqsadi anglanishi; v) yangi bilimlarga ega bo'lishi; g) bilimlarni ijodiy qayta ishlash va hakoza.

Mustaqil ishlar tavsifnomasi



Bu borada birmuncha aniq va to'liq ta'rif uslubchi [olim S. Matjonov](#) qalamiga mansub¹³. O'quvchining mustaqilligi mustaqil fikrlay olishga bo'lgan ehtiyojda, ya'ni ta'lim jarayonida yangi vaziyatni vujudga keltira olish qobiliyati, masalan, topshiriqni olish hamda uni yechishga yo'l topishida namoyon bo'ladi. U ma'lum darajada tanqidiy qobiliyat mavjudligi, shaxsiy nuqtai nazarini bayon qila olish fazilati bilan xarakterlanadi. Ko'pgina psixologlar va didaktlarning qator asarlarida o'quvchilarning bilish faoliyatida mustaqillik va ijodiy fikrlashning

¹³ Matjonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1997. – 297 b. Matjonov S. Uzluksiz ta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish usullari. – T.: O'qituvchi, 1995. – 96 b.;

bog‘lanishi o‘rtasida yaqinlikning mavjudligi qayd etilgan. Tarixchi metodistlarning o‘zlari ham tayyor bilimlarni yetkazish bilan o‘quvchilarning mustaqil ishlashi o‘rtasida aniq “farq” bo‘lishini ta’kidlaydilar.

Yuqorida bayon etilgan fikr–mulohazalarga asoslanib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Mustaqil ishlashning negizi deb, o‘quvchilarning ma’lum faktlarni qayta ishlash, yangi bilimlarni egallash, muammolarni ijodiy hal etishga qaratilgan unumli faoliyatini tushunish mumkin. Mustaqil ishlarning tavsifnomasi 1–jadvalda o‘z aksini topgan. Demak, unga oddiy idrok qilish hamda tayyor bilimlarni qayta eslash (jumladan, yuqorida qayd etilgan mavzuni o‘qib, so‘zlab berish) kirmaydi.

2. Turkistonda milliy–ozodlik harakatlari davrini “O‘zbekiston tarixi” fanida o‘rganish va o‘zlashtirish o‘quvchilar tomonidan mustaqil ishlash jarayonida ham murakkab kechadi. Sababi, aytib o‘tilganidek, tarixiy jarayonning o‘zi o‘ta qiziqarli va ko‘p hujjatli bo‘lgani tufayli o‘quvchi tez o‘zlashtirishi mumkin. Boz ustiga metodik adabiyotlar ham yetarli emas. Shuning uchun o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan tahliliy materiallarni bosqichma–bosqich o‘zlashtirib borish ko‘zda tutiladi.

3. “O‘zbekiston tarixi”ga oid mustaqil ish mavzulari ahamiyat kasb etadi va ularni o‘zlashtirish o‘qituvchi–o‘quvchi hamkorligi orqali amalga oshiriladi.

Pedagogika fanlari doktori Q. Husanboyeva o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish muammosini tadqiq etishga yo‘naltirilgan «Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari» nomli monografiyasida mustaqil fikrlashga quyidagicha ta’rif bergan: “Mustaqil fikrlash – inson oldida turgan muammoni maqsad va vazifalarni belgilagan holda o‘z bilimi va hayotiy tajribalariga tayanib turli yo‘l, usul, vositalar yordamida, o‘zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo‘lgan aqliy faoliyatdir”¹⁴.

¹⁴ Xusanboyeva Q. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari. –T.: O‘zinkomsentr, 2003. – 9-b.

Bugungi adabiy ta'lim zimmasida bola shaxsini bosh qadriyatga aylantirish, ma'naviyatni shakllantirish ustuvorligini ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim olish va tarbiyalanish uchun bolaning o'zini harakatga undash, unga kashf etish lazzatini tuydirish, adabiy ta'lim jarayonida pedagogik hamkorlik hukmronligiga erishish; asarlar qahramonlariga g'oyaning ifodachisi... deb emas, jonli inson deb qarashga erishish... singari salmoqli vazifalar borligini olimlar o'z tadqiqot ishlarida atroflicha yoritgan.

Demak, maktabda asar o'quvchining qabul qilish, badiiy tafakkur qonuniyatlariga asoslangan holda o'rganilib, tahlil qilinadi. Albatta o'tgan darsda o'quvchilar "Mehrobdan chayon" romani haqida keraklicha ma'lumotlarga ega bo'lgan edilar. Ular bilishlari kerak bo'lgan ma'lumotlar taxminan quyidagilar:

- Romanda aks ettirilgan tarixiy voqealar;
- Bir-biri bilan konfliktida bo'lgan kuchlar o'rtasidagi kurash;
- Yaxshilak muammolariga ega bo'lgan qahramonlar va ularga xos yuksak insoniy fazilatlar, sular o'rtasidagi do'stlik, sadoqat.
- Salbiy xususiyatlarni o'zida jamlagan obrazlar va ularga xos g'ayri insoniy xususiyatlar.

Shu o'rinda aytish lozimki, o'quvchi shaxsiy fikri, ya'nikim uni fikrlashga, o'ylashga o'rgatish birinchi o'rinda turishi kerak.

O'qituvchi o'quvchilarni fikrlarini jamlash uchun Abdulla Qodiriyning o'zi aytgan quyidagi ma'lumotni o'qib berish mumkin:


"Turkiston amaldorlarining keyingi vakili bo'lgan Xudoyorxonning o'z xohishi yo'lida dehqon ommasini va mayda hunarmand-kosib sinfini qurbon qilishi, mamlakat xotin-qizlarini istaganicha tassarruf etishi, bunga qarshi keluvchilarga, tilasa kim bo'lmasin rahmsiz jazo berishi romanning mavzuidir"¹⁵.

Abdulla Qodiriy romanda ikki qarama-qarshi kuch o'rtasidagi nizoni aks ettirar ekan, Xudoyorxon va uning amir-amaldorlarining ichki va tashqi qiyofasini,

¹⁵ A.Zunnunov va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi.-T.: O'qituvchi, 1992,-B. 109.

ahloqiy buzuvqligini fosh etadi. Shu o‘rinda o‘quvchilardan shu o‘rinlarga romandan misollar keltirish so‘raladi.

“Tarmoqlash” metodidan foydalanib “Mehrobdan chayon” romani qahramonlariga tavsif beradilar.



O‘quvchilar har bir obrazning individual xususiyatlariga alohida to‘xtaydi.

Shu o‘rinda, yozuvchining mahorati, u tasvirlagan har bir obraz timsolida ochib berilishiga e‘tibor qaratmoq kerak. Xususan, Anvar va Abdurahmon, domla, yoki Anvar va Xudoyorxon qiyofasini o‘quvchilar bilan birgalikda talqin va tahlil qilish mumkin.

Yozuvchi asarda yaramas, qabih niyatli odamlarda bo'lgan yovuzlik xislatlarini Abdurahmon domlada umumlashtirgan, uni sof qalbli kishilar boshiga jafo, kulfatlar soluvchi, o'limga duchor qilishdan zavqlanuvchi mehrobdan chiqqan haqiqiy chayon sifatida gavdalandirgan. Rom anni o'qir ekanmiz, Abdurahmon, Shahodat mufti, Kalonshoh kabi jirkanch niyatli amaldorlar, din ahllari bilan birgalikda o'zlarining yovuz, qora niyatlarini amalga oshirish uchun har qanday yaramasliklardan qaytmasliklari ishonarli dalillar bilan asoslangan.

Shuningdek, roman bosh qahramonlar Anvar va Ra'no obrazlari haqida keraklicha to'xtalmoq lozim. Chunki, bir qarashda romantik qahramonlar eslatadigan, bu qahramonlar aql–zakovat, do'stga sevgiga sodiq, erk va adolat yo'lidagi shijoatlari, yozuvchi tomonidan chuqur mantiqan asoslangan. Bunga albatta, ularning maktab ko'rganligi, chuqur bilim olgani ham misol bo'la oladi. Shu o'rinda yana bir narsani e'tirof etmoq kerakki, romanda adibni, nozikta'b shoir ekanligini she'riy lavhalarda ko'rar ekanmiz, bu o'quvchilarga qahramonlarga nisbatan estetik zavq berishini, yozuvchining mahorati ekanligini o'quvchilar diqqatini tortmog'imiz lozim.

Umuman olganda, mustaqil o'qish darsida o'quvchilarni roman haqidagi fikrlari to'laligicha ochilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaymiz. Shu sababdan, bu darslarga o'qituvchilar katta e'tibor bermog'lari lozim.

III BOB. TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI.

3.1. Abdulla Qodiriyning tarjimai holini o'qitish bo'yicha dars ishlanmasi.

7-sinfda Abdulla Qodiriy tarjimai holini o'rganish

I. Darsning maqsadi: Abdulla Qodiriyning tarjimai holini uni ijodi bilan bog'lagan holda o'quvchilarga tushintirish, hamda ularning adib ijodiga doir kerakli ma'lumotlar tanishtirish.

II. Darsning metodi: Og'zaki bayon, aqliy hujum, tarmoqlash metodi

III. Ko'rgazmalilik: Yozuvchi adabiy merosi tegishli bo'lgan kitoblar va gazeta jurnallardan olingan manbalar, ijodi bo'yicha tayyorlangan slayd, hayotiga doir video rolik

IV. Tashkiliy qism: Salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarning darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

V. Yangi mavzuning bayoni:

7-sinfda adabiyot darslik majmuasi "Yangi davr nafasi" bo'limi Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga bag'ishlangan sahifa bilan boshlanar ekan, yozuvchining 1926-yil 15-iyun, Samarqand suddagi nutqidan boshlanadi. "So'zim oxirida odil sudlardan so'rayman: garchi men turli bo'hton, shaxsiyat va soxtalar bilan ikkinchi oqlanmaydurg'on bo'lib qoralandim. Loqal ularning, qoralovchi qora ko'zlaming ko'ngli uchun bo'lsa ham menga eng oliy bo'lfon jazoni bera ko'ringiz. Ko'nglida shamsi g'uboroti, teskarichilik maqsadi bo'Imag'on sodda, vijdonli yigitga bu qadar xo'rlikdan o'lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha ma'naviy o'lim bilan o'ldirildim. Endi jismoniy o'lim menga qo'rqinch emasdir. Odil sudlardan men shuni kutaman va shuni so'rayman"¹⁶.

XX asr yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasi, o'zbek romanchiligining asoschisi, 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi, noyob durdona qalb egasi Abdulla Qodiriy (asosiy taxalluslari: Qodiriy, Julqunboyi) 1894 yil 10 aprelda Toshkent shahrining Beshog'och daha,

¹⁶ Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., J.Yo'ldoshbekov. Adabiyot. Umum o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik majmua. -T.: Sharq, 2009.- 256 b.

Eshonguzar mahallasida, Qodirbobo (bog`bon) oilasida tug`ilgan. Otasi Qodirbobo (1820–1924) xon, beklar qo`lida sarbozlik qilgan, rus bosqini paytida (1865) Toshkent mudofaasida qatnashgan. Otasi boshidan o`tgan sarguzashtlar Abdulla Qodiriyning qator asarlari, xususan tarixiy romanlarining yuzaga kelishida muhim rol o`ynagan.

Abdulla Qodiriy dastlab 1904–1906 yillarda musulmon maktabida, 1908—1912 yillarda rus–tuzem maktabida va 1916—17 yillarda Abulqosim shayx madrasasida ta`lim oldi. 1925—26 yillarda Moskvadagi adabiyot kursida o`qigan. Yuqoridagilardan ham ko`rinib turibdiki, yozuvchi yoshligidanoq qadimgi Sharq madaniyati va adabiyoti ruhida tarbiya topgan arab, fors va rus tillarini o`rgangan. Uning rus–tuzem maktabida o`qishi, bolaligidanoq rus tilini puxta egallashi bo`lg`usi yozuvchi ijodiy taqdirida muhim ahamiyat kasb etadi, rus va jahon adabiyoti, madaniyati bilan bevosita tanishuv uchun yo`l ochib berdi. Shu bilan birga, jahon adabiyotini ixlos bilan mutolaa qilgan.

Oilasi kambag`allashganligi sababli bolalikdan mustaqil mehnat qila boshladi, turli kasblarni egalladi, mahalliy savdogarlarga kotiblik va gumashtalik qildi (1907—15). 1917 yil Октябрь davlat to`ntarishidan so`ng Eski shahar oziqa qo`mitasining sarkotibi (1918), “Oziq ishlari” gazetasining muharriri (1919), Kasabalar sho`rosining sarkotibi (1920), “Mushtum” jurnal tashkilotchilaridan va tahrir hay`ati a`zosi (1923–26).

Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyatining boshlanishi 1910–yillarning o`rtalariga to`g`ri keladi. “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914 yil 1 aprel sonida Abdulla Qodiriy imzosi bilan “Yangi masjid va maktab” sarlavhali xabar bosiladi. Bu bo`lajak adibning matbuotdagi dastlabki chiqishi edi. Oradan ko`p o`tmay, uning “To`y”, “Ahvolimiz”, “Millatimga”, “Fikr aylagil” kabi she`rlari “Sadoi Turkiston” gazetasi va “Oyna” jurnalida bosilgan. Abdulla Qodiriy bu she`rlarida millatdoshlarni jaholat va xurofotga qarshi kurashga chaqirib, ma`rifatparvar shoir sifatida maydonga chiqqan. “Baxtsiz kuyov” dramasi, “Juvonboz”, “Uloqda”, “Jinlar bazmi” kabi qator jiddiy, badiiy jihatdan pishiq hikoyalarini yaratgan. Адиб ijodining dastlabki namunalari bo`lgan bu asarlar millatparvarlik, ma`rifatparvarlik

ruhida yozilgan bo`lib, jadidchilik g`oyalari bilan sug`orilgandir. Muallif unda xalqning zabun holatidan kuyib so`zlaydi, millatni uyg`onishga da`vat etadi, fikrlashga chorlaydi. Uning “Juvonboz”, “Uloqda” kabi hikoyalarida o`z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli va ozod ko`rish istagi sezilib turadi.

Ayniqsa, “Uloqda” hikoyasi avvalgi asarlari bilan tenglashtirib bo`lmaydigan darajada yuqori bo`lib, XX asr boshidagi o`zbek adabiyotidagi realizmning cho`qqisi, realistik hikoyaning eng yaxshi namunasi hisoblanadi.

Abdulla Qodiriyning 1917 yil O`ktabr to`ntarishidan keyingi faoliyati asosan matbuot bilan bog`langan. Uning 1919—25 yillar oralig`ida matbuotda yuzlab maqola hajviyalar yaratdi. Bu asarlarini u har xil – Qodiriy, Julqunboy, Kalvak Mahzum, Toshpo`lat, Ovsar, Dumbul, Shig`oy degan imzo– taxalluslar bilan e`lon etgan. Shu taxalluslardan biri va xalq o`rtasida mashhur bo`lgani Julqunboydir. Abdulla Qodiriyning yozuvchi sifatida ilk bor elga tanitgan narsa – uning hajviy asarlari, ya`ni “Kalvak Mahzumning xotira daftaridan” va “Toshpo`lat tajang nima deydi?” kabi hajviy qissalaridir.

Adibning publitsistik chiqishlari avvalo o`sha davrning tarixiy hujjati, zamonasining solnomasi deb hisoblash mumkin. Hech kimga sir emaski, Abdulla Qodiriyning 44 yillik umri, 20 yillik ijtimoiy va ijodiy faoliyat davri keskin kurashlar, ta`qibu tahdidlar ichida o`tdi. Lekin shuni alohida e`tirof etish kerakki, shunda ham rostgo`y adib sho`ro davri haqidagi badiiy asarlarida, publitsistikasida sho`ro voqeligiga xos ziddiyatlarni, siyosatdagi xato va kamchiliklarni xolis turib ko`rsatishga jazm eta oldi. Ming taassubki, uning bu urinishlari birin–ketin zarbaga uchray boshladi. Xususan, 1926 yil “Mushtum”da bosilgan “Yig`indi gaplar” (bu maqola hajv tariqasida yozilgan bo`lib, unda bir necha kishilar, arbob kimsalar haziltomuz tanqid qilib o`tilgan edi) hajviyasidagi tanqidiy mulohazalari uchun “aksilinqilobiy harakat qilganlik”da ayblanib hibsga olingan va sudlanadi. Lekin, adib sudda ham mardona turib o`z sha`nini himoya qila oldi.

“Obid ketmon” qissasi ham sho`ro mafkurachilariga ma`qul kelmaydi, keskin tanqidga uchraydi, “ideologik buzuvchiliklar va xatolar”ga to`la, “siyosiy tutruqsiz” asar sifatida baholanadi. Yozuvchining tarixiy romanlari esa asosiy

pafosi — millat taqdiri, birligi, el–yurt qayg`usi, mustaqilligi, shaxs erki, ijtimoiy adolat uchun kurash g`oyalari bilan yo`g`rilganligi tufayli ham hukmron mafkuraga zid asarlar bo`lib chiqdi. Millat ruhini yorqin aks ettirgan, xalqning, o`zga millat kitobxonlarining sevimli asarlariga aylangan bu romanlar sho`ro davri siyosati uchun zararli kitoblar sifatida bot–bot qoralandi.


Adibning tarixiy romanlari millat taqdiri, birligi, el–yurt qayg`usi, mustaqilligi, shaxs erki, ijtimoiy adolat uchun kurash g`oyalari bilan yozilganligi ham hukmron mafkuraga zid asarlar bo`lib chiqdi. Yaratilgan bu romanlar sho`ro davri siyosati uchun zararli kitoblar sifatida bot–bot qoralandi.

30–yillar o`rtalariga kelib, bu mash`um kampaniya avjiga chiqdi. Nihoyat, Abdulla Qodiriy 1937 yil 31 dekabr kuni hibsga olindi. 9 oylik qamoqdagi so`roq–tergov, qiynoq, xo`rlikdan so`ng Cho`lpon, Fitrat kabi maslakdoshlari bilan birga qatl etildi. Qodiriy hibsga olingach, oilasini ta`qib etish boshlandi. Hovli–joyi tortib olindi. U yaratgan asarlar zararli sanalib, mahv etildi, o`tda yoqildi, kutubxonalardan yo`qotildi, ularni o`qish taqiqlandi. Bunday ta`qibu tahqirlar yigirma yil davom etdi. Nihoyat sobiq partiyaning XX s`ezdida shaxsga sig`inish qoralanib, uning oqibatlarini tugatishga kirishilgach, totalitar tuzumning aybsiz aybdorlari, qurbonlari qatori Abdulla Qodiriy ham oqlandi.

Faqat 1991 yilda yurtimiz o`z mustaqilligini e`lon qilganidan so`nggina Abdulla Qodiriyga yuksak hurmat va ehtirom ko`rsatila boshlandi. Abdulla Qodiriy Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991), “Mustaqillik” ordeni bilan taqdirlandi (1994). Abdulla Qodiriy nomidagi O`zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta`sis etilgan. Toshkent madaniyat institutiga, Toshkentdagi madaniyat va istirohat bog`iga, katta ko`chalardan biriga, respublikamizdagi ko`plab madaniyat muassasalariga uning nomi berilgan. Eng muhimi, Abdulla Qodiriy, uning hayoti, ijodi haqidagi bor haqiqatni aytish, yozish, asarlarini asl holida “tahrirsiz” chop etish uchun yo`l ochildi.

Shundan so`ng, o`qituvchi, yozuvchining hayoti va ijodini boshlanish jarayonini savol–javob tariqasida o`quvchilarga eslatish uchun, “Tarmoqlash” metodidan foydalanish mumkin.

“Tarmoqlash” metodi asosida fikringizni bildiring.



Yozuvchi tarjimai holini o‘rgatishda, asosiy manba Habibulla Qodiriyning “Otam haqida” asaridan olingan, uning otasi haqida berilgan ma’lumotlardir. Shuning uchun shu kitobni ko‘rgazmali qurol sifatida olib kirish, kerakli o‘rinlarda undan foydalanish lozim. Chunki, yozuvchi tarjimai holi o‘rganilayotganda, uning hayot yo‘li va adabiy faoliyatini o‘rganishda uning siymosi ibratli tarzda hikoya tarzida bayon qilinishi darsning saviyasini ko‘taradi. Masalan, “Otam haqida” xotira kitobidagi “Maktabda”, “Qodiriy prikazchik”, “Julqunboy kasal”, “Julqunboy to‘g‘risida” kabilar foydalanish yaxshi samara beradi.

Darsda o‘quvchilarga yozuvchi hayoti va ijodi xususida tayyorlangan video rolik namoyish etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

9–SINFDA ABDULLA QODIRIY TARJIMAI HOLINI O‘RGANISH

Darsning maqsadi: Abdulla Qodiriy tarjimai holini o‘rganish yuzasidan:

- o‘quvchilar bilimini mustahkamlash;
- savol va topshiriq orqali hikoyani o‘rganish jarayonida to‘g‘ri va mustaqil xulosa chiqarish;
- tahlil jarayonida o‘quvchilarni yaxshilik va halollikka o‘rgatish, milliy urf–odatlarimizni qadrlash, vatanga muhabbat tuyg‘usini tarkib toptirish.

Dars uslubi: O‘qituvchining bayoni, insert usuli, savol–javob o‘tkazish.

Dars jihozi: Adib surati, asarlaridan namunalar, ko‘rgazma rasmlar, tarqatma kartochkalar.

Darsning vazifasi: O‘quvchilarga Abdulla Qodiriy tarjimai holini o‘rganish.

Darsning borishi:

9–sinfning “Yangi o‘zbek adabiyoti”¹⁷ bo‘limi A.Qodiriy hayot va ijod yo‘lini o‘rganish bilan boshlanadi. O‘quvchilarga notanish ma’lumotlarni berish uchun Insert usulida foydalanish mumkin:

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Darslikdagi matnini o‘qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing:

V – bilaman

K – men uchun yangi ma’lumot

- – men bilgan ma’lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo‘shimcha ma’lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

¹⁷ Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., J.Yo‘ldoshbekov. Adabiyot. Umumta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. –T.: Yangi yo‘l poligrang, 200. – b.

Mavzu savollari	V	–	K	?
1. Abdulla Qodiriy hayotining asosiy tamoyillari nimadan iborat edi?				
2. Abdulla Qodiriy 1917–yilgacha qanday ishlar bilan band bo‘lgan?				
3. Abdulla Qodiriy qayerlarda tahsil olgan?				
4. Abdulla Qodiriy kimlarni asarlarini tarjima qilgan?				
5. Qanday imzo–taxalluslar bilan e‘lon qilgan?				
6. Abdulla Qodiriyning qanday hajviy asarlarini bilasiz?				
7. Abdulla Qodiriy nima uchun qatag‘on qurboniga aylandi?				
8. Mustaqillik yozuvchiga nima berdi?				

1. Abdulla Qodiriy hayotining asosiy tamoyili, nomus, insof va haqgo‘ylik bo‘lib, u o‘z ijodi bilan millatparvarlik, ma‘rifatparvarlik, jadidchilik g‘oyalarini tarannum etib, millatni uy‘onishga da‘vat etib, fikrlashga chorladi.

2. Sharq madaniyati va adabiyoti ruhida tarbiya topgan; arab, fors va rus tillarini o‘rgangan. Jahon adabiyotini ixlos bilan mutolaa qilgan. Oilasi kambag‘allashganligi sababli bolalikdan mustaqil mehnat qila boshladi, turli kasblarni egalladi, mahalliy savdogarlarga kotiblik, prikazchik (yugurdaklik), ustachilik, bog‘bonlik qilgan (1907—15).

3. Abdulla Qodiriy musulmon maktabida (1904—06), rus–tuzem maktabida (1908—12), Abulqosim shayx madrasasida (1916—17) ta‘lim oldi; Moskvadagi adabiyot kursida (1925—26) o‘qidi.

4. Abdulla Qodiriy zukko tilshunos, zabardast tarjimon sifatida ham katta ishlar qildi. U tatar fizik olimi Abdulla Shunosiyning “Fizika” (1928), Gogolning “Uylanish” (1935), A.P. Chexovning “Olchazor” (1936) asarlarini o‘zbekchaga tarjima qildi. Qozonda bosilgan “To‘la ruscha o‘zbekcha lug‘at’ni (1934) tuzishda ishtirok etgan.

5. Yozuvchi o‘z asarlarini “Qodiriy”, “Julqunboy”, “Kalvak Maxzum”, “Toshpo‘lat”, “Ovsar”, “Dunbul”, “Shig‘oy” degan imzo–taxalluslar bilan e‘lon qilgan.

6. Hajviy asarlari “Kalvak Mahzumning xotira daftaridan, “Toshpo‘lat tajang nima deydi?”.

7. Abdulla Qodiriy 1926–yilda “sho‘ro rahbarlarini matbuot orqali obro‘sizlantirdi” degan tuhmat bilan sudlandi. Matbuotda Qodiriyga yangi hujumlar boshlanadi, 1937–yil 31–dekabr kuni Qodiriy hibsga olinadi. To‘qqiz oylik qamoqdagi so‘roq, qiynoq, xo‘rliklardan so‘ng 1938–yil 4– oktabrda Cho‘lpon, Fitrat kabi adiblar bilan birga qatl etiladi, sud qarori esa 5–oktabrda chiqadi.

8. Istiqlol davriga kelib yozuvchi asarlari asl holida to‘liq nashr etildi, adib haqidagi tarixiy haqiqatni ochiq–oshkora bayon etgan kitoblar, maqolalar bosildi, filmlar yaratildi. Abdulla Qodiriy birinchi bo‘lib Mustaqillik ordeniga munosib ko‘rildi. Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Nomi abadiylashtirilib, haykallari barpo etildi. Bu o‘zbek xalqining o‘z buyuk farzandi xotirasiga hurmati bo‘ldi.

IX sinfda Abdulla Qodiriy tarjimai holi ijodiy faoliyati bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Bunda, albatta o‘quvchilarning diqqat–e‘tiborini Y–VII sinflarda adibning tarjimai holi va o‘qigan asarlarini eslatish lozim. Shundan keyingina yozuvchining adabiyot rivojida, jamiyatning ijtimoiy–siyosiy hayotida tutgan o‘rniga, ijtimoiy yuksalishning asosiy bosqichlariga o‘quvchi e‘tibori jalb etiladi. Xususan, Abdulla Qodiriyning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni va roman janrining yuzaga kelishi haqidagi ma‘lumotlar yodga olinadi.

3.2. 9–sinfdan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini o‘rganishga doir tavsiyalar

Mustaqillik yillarida ta’lim sohasidagi tub islohotlar davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Chunki yosh avlodning imkoniyatlari va qobiliyatlarining takomillashuvida ta’lim bo‘g‘inlari alohida ahamiyatga ega. Ta’lim yosh avlodning jamiyatdagi o‘rnini topishida ham zaruriy jabha hisoblanadi. Zotan, ma’naviyatli yoshlar jamiyat boyligidir.

Mustaqillik davrida adabiyot o‘qitish metodikasi fani yozuvchi hayoti va ijodini o‘rgatish muammosiga yangi tamoyillar asosida yondashuv orqaligina ijodkor shaxs qiyofasini o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlantirish mumkinligini isbotladi. Zero, ijodkor qiyofasini uning ruhiyatiga aloqador murakkab, ziddiyatli, yashirin jihatlari bilan keng ko‘lamda talqin etish nihoyatda qiyin jarayondir. Ijodkor o‘z asarlarini yaratarkan, uning markazidagi inson qiyofasida, obraz ruhiy olami tasvirida hamohang xususiyatlar, tuyg‘u va kechinmalarni ifoda etishi tabiiy. Ijodkor mahorati ham inson qalbini qay darajada haqqoniy tasvirlay olishi bilan belgilanadi. Ijodkor inson ruhiyati manzaralarini o‘ziga xos, boshqalarga o‘xshamagan tarzda kashf etish iste’dodiga ko‘ra betakrordir. Har bir iste’dod egasining o‘z ruhiy olami, e’tiqodi, shaxs sifatidagi xislat va fazilatlari, tafakkur tarzi, ta’sirlanish yo‘sinining ayrichaligi uning ijodkor shaxs sifatidagi qiyofasini belgilovchi xususiyatlar hisoblanadi. Aynan shu jihatlarga ko‘ra ijodkorlar adabiyotda o‘ziga xos uslub egasi sifatida ijod namunalarini yaratadilar.

Adabiy ta’limda hamisha yozuvchi hayoti va ijodini o‘rgatish vositasida uning shaxs sifatlarini hamda yaratuvchi ijodkorga xos qiyofasini o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlantirish orqali namuna tarbiyasiga e’tibor qaratilgan. Muayyan ijodkorga xos badiiy tafakkur tarzini o‘rganish, yozuvchi kechinmalariga kechinmadoshlik, hamfikrlik holatini yuzaga keltirishdagi o‘qituvchi mahorati bilan bog‘liq jarayonlariga kam e’tibor qaratilgan. Mazkur ishda ayni shu jarayon barcha murakkabliklari bilan birga tadqiq qilinadi. Ijodkorning yaratuvchi shaxs sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari, iste’dodi, mahorat qirralari, betakror uslubini o‘rgatishda adabiy tahlil va talqindan foydalanish yo‘llari yoritiladi. O‘quvchi–

kitobxonning estetik didini yuksaltirishga, asarni yaratishda yozuvchi ruhiyatida kechgan holatlar mohiyatini anglatishga, tuyg‘ularini o‘quvchi qalbida qayta jonlantirishga erishish yo‘llarini aniqlash orqali o‘quvchida ham o‘ziga xos muayyan tuyg‘u va fikr, nuqtai nazar, mushohada–muhokama, munosabatni yuzaga keltirish mumkin. Bu xususiyatlar esa o‘z mustaqil fikri va nuqtai nazariga ega yoshlar ma’naviyatini shakllantirishga xizmat qiladi.



Uslub – betakrorlik, o‘zlik, san’atkor qiyofasi, nuqtai nazari, mahoratini ko‘rsatuvchi mohiyat. Shu bois, bugungi adabiy ta’limda ijodkor hayoti va faoliyatini o‘rgatishdagi markaziy bo‘g‘inni uning o‘ziga xos uslubini tahlil va talqin qilish tashkil etishi lozim. Yozuvchining o‘ziga xos uslubini uning betakror badiiy olamini o‘rganish “kalit”idir. Yozuvchi hayoti va ijodini samarali ta’lim usullariga tayanib o‘rgatish orqali badiiy olam yaratgan iste’dod egalariga xos betakror xususiyatlarni ochib berish vositasida yaratuvchi Shaxs darajasini zabt etishga o‘quvchini da’vat qilish va ruhlantirish mumkin; zero, o‘quvchiga yurt dardlariga dardkashlik, xalq orzu–umidlarini haqqoniy tasvirlash orqali so‘z san’atkorlari shu el ardog‘iga sazovor bo‘lganliklarini anglatish; iste’dod harorati ila yaratilgan san’at asarlarida ijodkor qiyofasi, betakror ruhiyati, ko‘nglidagi rang–barang kechinmalar tabiiyligi bilan aks etganligiga ishonch hosil qildirish

vositasida o'quvchida ijodkorga nisbatan tuyg'udoshlik hissini tarkib toptirishga erishish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, yaratuvchilikka, ezgulikka, go'zallikka intiluvchan yoshlarni tarbiyalash, ular ko'nglida yetuk insonlarga havas hissini uyg'otish, el e'zoziga sazovor bo'lgan so'z san'atkorlari kabi qalbi uyg'oq shaxslarni voyaga yetkazish mumkinki, tadqiqot ishimizning maqsadlarini ayni shu masalalar tashkil qiladi va uning dolzarbligini belgilaydi. Adabiy tahlil va talqin esa bu jarayonda o'qituvchi tayanadigan eng samarali usullardir.

9–sinfda “O'tkan kunlar” romanini ana shu maqsadlardan kelib chiqib o'rganishdan avval kirish mashg'uloti tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday kirish mashg'ulotida o'quv dasturida belgilangan vazifalar qisman hal etiladi:

- Abdulla Qodiriy o'zbek romanchiligining asoschisi ekanligi;

- o'zbek nasrida realistik metodning qaror topishida Abdulla Qodiriyning xizmatlari;

- XX asr millat ma'naviy hayotida “O'tkan kunlar” romanining o'rni;

Demak, romanning ijodiy tarixi va taqdiri kabi masalalar yoritilayotganda, o'qituvchi adabiyotshunos olimlardan O.Sharafiddinov, U.Normatov, N. Karimovning “O'tkan kunlar” haqidagi risola va maqolalaridan ayrim ko'chirmalarni o'qib bersa, dars yanada mazmunli o'tadi. Shuningdek, Abdulla Qodiriyning o'g'li Habibullo Qodiriyning “Otam haqida”, shoir Shukrullonning “Kafansiz ko'milganlar” tarixiy hujjatli asarlaridan ham qiziqarli ma'lumotlarni keltirib o'tish foydalidir.

Xullas, dars jihozlari sifatida adibning hayoti va ijodiga bag'ishlangan adabiy albom, matbuot materiallari, adabiyotshunos olimlar asarlari tanlanadi. Ular sinfda yaxshigina ko'rgazma holida qo'yilib, o'quvchilarga taqdim etiladi.

Romanda turli ijtimoiy guruh vakillarining obrazlari mavjud. Hech kimga sir emaski, obraz yaratish murakkab jarayondir. Har bir obraz tarixiy, hayotiy voqea va badiiy to'qima faktlarning tajassumidir. Otabek, Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor, Ziyo shohichi, Homidlar–davlamand va savdogarlar muhiti vakillari; Azizbek, Musulmonqul, Xudoyorxon, O'tabboy qushbegilar–hukmdor sinf vakillari bo'lib, adib bu obrazlarni yaratar ekan, real protiplarga va tarixiy

xronikal materialga tayangan; Usta Olim, Hasanali –fuqarolar sinfidan bo‘lishsa, xilma–xil xarakterdagi xotin–qizlar obrazi: Kumush, Oftob oyim, Xushro‘y, O‘zbek oyim timsolini yoritish yozuvchidan ancha mahorat talab qilgan va shuni e‘tirof etmoq joizki, buni adib uddasidan chiqqan.

Bu haqda: “Men,— deydi Izzat Sulton– Qodiriydan: “O‘tkan kunlar romaningiz voqeyiy asarmi?” deb so‘radim. “Yo‘q,—dedilar u kishi,—romandagi besh–o‘n foiz, ayrim tarixiy voqealar, shaxslargina voqeyiy. Qolganlari yozuvchining mahorati..”¹⁸.

Adabiyotshunos, M.Qo‘shjonov aytganidek: “O‘lmas asarlar qatoridan o‘rin olgan “O‘tkan kunlar”da jonini fido qilishdan ham qaytmagan, yuksak insoniy hisga ega bo‘lgan qahramonlar–bobolarimiz obrazi tasvirlangan”¹⁹,—bilan qimmatlidir.

Endi, bevosita “O‘tkan kunlar” mavzusiga oid [noan‘anaviy dars ishlanmasini](#) beramiz:

Dars maqsadi: A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani obrazlari va syujet unsurlari bo‘yicha tahlil qilish orqali talabalarga asar mohiyatini tushuntirish.

Darsning vazifasi: O‘quvchilarning “O‘tkan kunlar” asari bo‘yicha olgan bilimlarini sinash va mustahkamlash.

Kutilayotgan natija: O‘quvchilarni e‘tiborini o‘zbekning milliy urf – odatlariga qaratish, mardlik, sadoqat, ezgulik fazilatlarini singdirish, ota – onaga bo‘lgan hurmatni shakllantirish –bolani har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash.

Dars usuli: Noana‘aviy, bahs – munozara.

Dars jihozi: Abdulla Qodiriy portreti, ”O‘tkan kunlar” romani va boshqa kitoblar, kompyuter, proektor, izohli rasmlar rag‘bat kartochkalari, savollar tarqatmasi, jadvallar, diagramma.

Ta'lim metodlari: Interfaol, “Birgalikda o‘qiymiz” texnikasi, blist o‘yini, zig–zak metodi.

¹⁸ H.Qodiriy. Otam haqida.-Toshkent, 1974, -B.114

¹⁹ M. Qo‘shjonov. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san‘ati.-T.: 1966.-B.4-5

Darsga qo‘yiladigan talablar: O‘zaro hurmat; fikrini erkin va ravon ifodalash; o‘zgalar fikrini tinglash va hurmat qilish;

O‘quvchilar bilan ishlash shakli: Guruhlarda ishlash.

“BIRGALIKDA O‘QIYMIZ” TEXNIKASI

Birgalikda o‘qish: o‘quv guruhi kichik guruhlariga bo‘linadi. Har bir kichik guruh o‘rganilayotgan mavzuning biror sohasida ekspert bo‘ladi va boshqalarni o‘rgatadi.

“Birgalikda o‘qiymiz” texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi

1. 5–6 talabadan iborat guruhlar tuziladi, ularga o‘quvchilarning takliflari asosida nom beriladi.

2. Har bir guruhga bitta topshiriq beriladi – umumiy mavzuning bir qismi, uning ustida butun o‘quv guruhi ish olib boradi hamda ularga ekspert varaqlari taqdim etiladi.

3. Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.

4. Hamma yakka tartibdagi topshiriqni bajaradi.

5. Barcha guruh a‘zolarining mini–ma‘ruzalari tinglanadi. Umumiy natijani shakllantirishadi va uni taqdimotga tayyorlashadi.

6. Sardor guruh ishi natijalarini taqdim qiladi.

Guruhlarda ishlash qoidasi

Savollarni diqqat bilan tinglang.

Guruh ishlarida faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas‘uliyat bilan yondashing.

Agar yordam kerak bo‘lsa, albatta, murojaat qiling.

Agar yordam kerak bo‘lsa, albatta, yordam bering.

Guruhlar faoliyati natijalarini baholashda barcha ishtirok etishi shart.

Aniq bilmog'imiz lozim:

A. Boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz.

B. Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho'kib ketamiz.

Abdulla Qodiriyning yozuvchilik talanti, badiiy salohiyati “O'tkan kunlar” romanida namoyon bo'lishini o'quvchilar tahlil va talqin jarayonida anglab yetadilar. Shu bilan birgalikda yozuvchining “O'tkan kunlar” romanida o'z oldiga qo'ygan maqsadiga an'anaviy adabiyot va xalq badiiy tafakkur tarzini yangi o'zan — realistik bayon usuliga o'tkazish orqali erishganligida o'quvchilar diqqatini qaratish kerak. Abdulla Qodiriy o'ziga xos yozuvchilik qirrasini eskirgan ifoda vositasi o'rniga zamon bilan mos keluvchi yangisini yaratish ehtiyojini aql bilan anglab yangi shakl — roman janriga murojaat qilganligi yorqin misollarda ochib berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, “O'tkan kunlar” romani o'z zamonining yangi shaklga kirgan eposi ekanligini o'quvchilar ongiga singdirish lozim. Buni har xil interfaol usullarda, xususan, “Birgalikda o'qiymiz” texnikasi, birlashtirilgan o'yini, zig-zak metodlaridan foydalanib o'rgatish, o'quvchilarni o'zini ishlashga, fikrlashga o'rgatadi. Shu sababli, biz, dasavval, quyida “Birgalikda o'qiymiz” texnikasidan foydalanib, yozuvchining “O'tkan kunlar” romani tahliliga kirashamiz.

O'quv topshiriq № 1

“O'tkan kunlar” romanida ro'y bergan chiqal
hodisalar tarixi qanday?

O'quv topshiriq'i № 2

Yozuvchining obraz yaratish mahoratini Kumush va
Jannat xola obrazlari misolida qiyoslang.

O‘quv topshirig‘i № 3

Kumush portreti aks etgan lavhani o‘qing va badiiy tasvir vositalarini toping.

O‘quv topshirig‘i № 4

Portret tasvirini yaratishda Qodiriy qahramon yuzini, kiyimlarini qanday ranglardan foydalanib tasvirlagan?

O‘quv topshirig‘i № 5

Otabek ota-ona rizoligi uchun bosh egib to‘g‘ri qildimi? Uning o‘rnida siz nima qilgan bo‘lardingiz?

BLITST O‘YINI

O‘quvchi uchun mo‘ljallangan blit o‘yini har biri alohida–alohida o‘quvchilarga tarqatiladi.

O‘yin qoidasi: 1–raqam ostidagi kataklarda berilgan savollar joylashgan. 2–raqam ostidagi kataklarda talaba javoblari beriladi. Bunda talaba har bir to‘g‘ri deb bilgan javobiga “+”, noto‘g‘ri deb bilgan javobiga “–” alomatlarini qo‘yib boradi. 3–raqam ostidagi kataklarda o‘qituvchi tomonidan aytilgan to‘g‘ri javoblar belgilanadi. Bunda ham “+”, “–” alomatlaridan foydalaniladi. 4–raqam ostidagi kataklarda esa har bir to‘g‘ri va noto‘g‘ri topilgan javob uchun baho belgilanadi, va bu baholar javob uchun ajratilgan

baholar ustuniga qo'yib boradi.

Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanini bilamanmi?”

1	2	3	4
Savollar	O'quvchining javobi	To'g'ri javob	Javob uchun ajratilgan baho
Asar janri			
Uslubi			
Asar qurilishi			
Asar komponentlari			
Obrazlari			
Asar tili			
Tabiat tasviri			
Milliy mentalitet			
Xarakter			
Mahorat masalasi			

3-ИГЗАГМЕТОДИ

Avvaldan tayyorlangan mahsus soʻzlari yozilgan tarqatmalar partalar ustiga qoʻyib chiqiladi. Masalan:

Oʻqituvchi tomonidan tayyorlangan kichik tarqatmalarda yozilgan kartochkalarni talabalar kelib olishadi. Bir xil soʻz tushgan talabalar oʻsha soʻz yozilgan stol atrofiga oʻtiradilar. Masalan, “Tanqidchi” soʻzi tushgan 5 ta talaba “Tanqidchi” soʻzi yozilgan stolga kelib oʻtiradilar.

Salbiy obrazlar

Asardagi ijobiy obrazlar

Asardagi milliy xarakterlar


Yozuvchining obraz yaratish mahorati

Romanda tarixiylik va badiiy toʻqima

Shu tartibda talabalar 5 guruhga boʻlinadi. Mavzu mohiyatini yorituvchi matn ham tegishli ravishda 5 qismga ajratiladi.

Ushbu tarqatmalar har bir stoldagi talabalarga tarqatiladi va uni o'rganish vazifasi topshiriladi. Belgilangan vaqt davomida guruhlar matn ustida ishlaydilar, vaqt tejash maqsadida guruh talabalari orasidan **liderlar** tanlanadi. Savollarga javob berilgandan so'ng **liderlar** chiqib uni taqdim etadilar. Shu tarzda 5 ta tarqatma stollar atrofida aylanib chiqadi va har bir guruh **lideri** savollarga javob beradilar.

O'quvchilar Kumush va Zaynabning o'xshash va farqli jihatlariga e'tibor qaratadilar



O'quvchirni faollashtirish uchun savollar:

Har bir guruhga asar obrazlari yozilgan tarqatmalar beriladi.
Ular mazkur obrazlarni tahlil qiladilar

Otabek

O'zbekoyim

Kumush

Yusufbek hoji

Zaynab

Musulmonqul

Xushro'y

Homid

Guruhlar o'zaro kelishgan holda ishlaydilar. So'ng guruh
liderlari chiqib topshiriqni taqdim qiladilar.

9–SINFDA “BADIY ADABIYOTDA MILLIY RUH IFODASI” MAVZUSINI (“O‘TGAN KUNLAR” ASARI ASOSIDA) O‘RGATISH

Hech kimga sir emaski, mustaqiligimizdan keyin yurtimizda kelajagimiz poydevori bo‘lmish o‘tib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi davlat siyosatining diqqat markazida chiqdi. Shu sababdan, bu borada O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “2004–2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi” qabul qilindi. Bugungi kunda Davlat ta’lim standarti, pedagogika fani konsepsiyasining yaratilganligi, o‘quv predmetlari bo‘yicha konsepsiyalar, darsliklarning yangi avlodi yaratilganligi mazkur qonun va dastur talablari asosida jahon talablariga javob beradigan, siyosiy yetuk, aqlan barkamol, jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalashdek murakkab vazifalar hal qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy–ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Farmonida “Vatanimiz mustaqilligining ma’naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf–odatlarimizni asrab–avaylash, xalqimiz, ayniqsa yosh avlod qalbi va ongiga ona–yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda”²⁰ deb ta’kidlanadi.

Darhaqiqat, bugungi kunda ma’naviy–ma’rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish inson shaxsini ma’naviy jihatdan rivojlantirishda, uning ruhiyati, o‘z–o‘zini anglash, did–farosati, aql–zakovati, ongli faoliyatini shakllantirishda, yoshlar o‘rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf–odatlar va an’analar, qadriyatlar asosida barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o‘rin tutadi. Ma’naviy–ma’rifiy ishlar jarayonida o‘zbek xalqining milliy qadriyatlaridan hisoblangan notiqlik san’ati va madaniyatini o‘quvchi–yoshlarda shakllantirish ularda til, tafakkur, so‘z,

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy–ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi farmoni. Xalq so‘zi. 2006 yil, 26 avgust.

nutq kabi masalalarni rivojlantirish bilan birga ezgulik, muomala, xushmuomalalik, shirinsuxanlik, donolik, bilimdonlik, xulq-atvor, axloq kabi tushunchalarni kamol toptiradi.

Prezidentimiz shaxs kamolotida muhim o‘rin tutuvchi omil adabiyot, xususan, badiiy adabiyot bo‘lib, uni o‘rgangan: “..odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, imon–e’tiqodli farzand nafaqat ota–onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir”²¹–, degan edi. Demak, yosh avlodni ezgulik, mehr–muhabbat, odamiylik, imon–e’tiqodli qilib tarbiyalashda, shoir Abdulhamid Cho‘lpon ta’riflagandek, adabiyotni “o‘tkir yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi” deb hisoblasak, badiiy adabiyotni o‘qib, bu ma’rifat chashmasidan bahra olsakkina barkamollikka erishamiz, deb o‘ylaymiz. Shu bois yozuvchi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida milliy ruh ifodasini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Romanni shu nuqtai nazardan o‘rganar ekanmiz, “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch” kitobidagi: “Xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishda milliy urf–odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo‘lgan mehr–oqibat, insonni ulug‘lash, tinch va osoyishta hayot, do‘stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda”,–degan fikrlar naqadar to‘g‘ri ekanligini shohidi bo‘lamiz.

Darsning ta’limiy maqsadi: Milliy ruh to‘g‘risidagi nazariy ma’lumotlarni o‘quvchilar ongiga singdirish;

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Ajdodlarimizdan meros qolgan milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash;

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O‘quvchilarning erkin, ijodiy mulohaza yuritish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Dars usuli: “Aqliy hujum”, “Tarmoqlash”, suhbat, “Sardorlar bahsi”

Dars turi: Umumlashtiruvchi, noan’anaviy.

Dars jihozi: Slaydlar, “O‘tkan kunlar” romanidan rasmlar, lavhalar, tarqatmalar, rag‘batlar.

²¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma’naviyat, 2008.-B.56

Fanlararo bog‘lanish: Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari, tarix, tasviriy san‘at.

Abdulla Qodiriyning yozuvchilik talanti, badiiy salohiyati “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarida namoyon bo‘lgan. Yozuvchi bu asarlarida o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga an‘anaviy adabiyot va xalq badiiy tafakkur tarzini yangi o‘zan — realistik bayon usuliga o‘tkazish orqali erishgan. Yuzaga kelgan shart–sharoit, yozuvchining ichki sezgilari an‘anaviy xalq eposining mag‘zini yangilash imkonini bergan. Abdulla Qodiriy ushbu qonuniyat va zaruratni dildan his etgan. Eng muhim jihat — eskirgan ifoda vositasi o‘rniga zamon bilan mos keluvchi yangisini yaratish ehtiyojini aql bilan anglab yangi shakl — roman janriga murojaat qilgan. “O‘tkan kunlar” o‘z zamonining yangi shaklga kirgan eposidir. Insoniyatning adabiy estetik tafakkuri rivojida miflar, miflar zamiridan epos va epos asosidan roman paydo bo‘lganligi aytiladi. Ayni holatni “O‘tkan kunlar” romanida ham ko‘ramiz. “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari voqealari sirtidan sevgi qissalariga o‘xshasa–da, ularning zamirida Vatan taqdiri, Vatan qayg‘usi yotadi.


“O‘tkan kunlar”ning ma‘no – mundarijasi doirasi keng, unda xilma–xil ijtimoiy, ma‘naviy muammolar aks ettirilgan. “O‘tkan kunlar” romanida xalqimizning muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, ahvol–ruhiyati, ma‘naviy dunyosi, bo‘y–basti, qiyofasi keng ko‘lamda aniq–ravshan gavdalantirilgan, xalqning dunyoqarashi bor holicha ko‘rsatilgan. O‘zbekning urf – odatlari, oila qurish, uy–ro‘zg‘or tutish, mehmon kutish, er–xotin, ota–bola munosabatlari, to‘yyu aza, har xil majlislar, quvonchli, zavqli damlar, dramatik–fojiaviy voqealar, kechinmalar, hayot –mamot ahamiyatiga molik ulkan ijtimoiy–tarixiy hodisalar, o‘rda hayotidan tortib, oddiy miskin kimsalarning xilma–xil tabaqaga mansub kishilarning turmush tarzi, tashvish–quvonchlari mujassam.

A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida pok muhabbat tarannum etilgan. Adib romanda yaxshi odamlar qalbidagi zakovat va saxovat, ular orasidagi mehr–ehtiro, bir – biriga muhabbat, samimiyat, sevgi – sadoqat, fidoiylilik tuyg‘ularini topib tasvirlaydi. Romanda o‘tmishdagi ulug‘ allomalar, so‘z san‘atkorlari nomi

hurmat bilan tilga olinadi. Yusufbek hojining “Boburnoma”, Otabek bilan Kumushning Fuzuliy g‘azallariga mehri alohida ta’kidlanadi.


Asar qahramonlari haqida to‘xtalar ekanmiz, ularga qo‘yilgan ismlar ham o‘ziga xos ramziylik kasb etganining guvohi bo‘lamiz. Mirzakarim qutidor oilasiga nazar tashlasak, Oftoboyim va Kumushbibi obrazlarida ham o‘ziga xoslik mavjud. Darsni “Tarmoqlash” metodi qo‘llash bilan boshlash maqsadga muvofiq. Shu orqali, o‘quvchilar “O‘tkan kunlar” romani xususidagi tushunchalarini shakllantiradilar.

“Tarmoqlash” metodidan foydalanib “O‘tkan kunlar” romani qahramonlariga tavsif beradilar.



“Tarmoqlash” metodi asosida romsandagi har bir obrazga tavsif berar ekanlar, o‘quvchilar erkin fikrlashga o‘rganish bilan birga, ularga xos xususiyatlardan kelib chiqib, milliylik – tashqi belgi emas, balki u ichki holatekanligini ham tahlillar asosida ochib berishadi “O‘tkan kunlar” romani milliy ruh juda bo‘rtiq aks etganligi bilan ajralib turadi. Bu xususan, Otabekning ota-onasi bilan Qutidor va Oftob oyimlarning qudalari hamda kuyovlari bilan munosobatlari tasvirlangan o‘rinlarda faqat o‘zbekkagina xos fikrlash va ta’sirlanish yo‘sini juda go‘zal ko‘rsatilgan.

O‘quvchilarga monitor orqali “O‘tkan kunlar” kinofilmidan lavhalar namoyish etiladi. O‘quvchilarga Yusufbek xoji va Otabekning suhbat, Kumushbibining qaynona–qaynotasiga bo‘lgan hurmatini aks ettirgan lavhalar namoyish etiladi. Shundan so‘ng ushbu lavha yuzasidan o‘quvchilarning fikr–mulohazalari tinglanadi va to‘ldiriladi. Obrazlar tizimi milliylik nuqtai nazaridan o‘rganilar ekan, obrazlar orasidagi konflikt, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi kolliziya masalalarini ochib berilishiga e’tibor qaratmoq kerak.




Bu orqali, “O‘tkan kunlar” romanining milliyligi, xususan, insonlardagi nozik, ko‘zga tashlanmaydigan jihatlar ravshan namoyon bo‘ladi. Adabiyotda milliylik masalasi hamisha adabiyotshunoslarning diqqat markazida bo‘lgan va tadqiq etilgan. “O‘tkan kunlar” birinchi o‘zbek milliy romani deb e’tirof etilgani ham bejiz emas. O‘zbek adabiy tili imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanib, milliy xarakterlar, milliy ruhiyat aks ettirilganligi; milliy hayot manzaralarini, urf–

odat, odob–axloq qirralarini milliy madaniyat nuqtai nazaridan tasvirlashga erishganligi adibning ulkan ijodiy yutug‘idir. Adib o‘zining bosh maqsadi sifatida o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyotga xos milliy ruhni roman janriga olib kirish deb belgilaganligi asardagi so‘z boshidanoq ma’lum bo‘ladi. O‘z asarida yozuvchi milliy ruh va milliy tafakkurni aks ettirish orqali milliy hayot tarzini, maishiy hayot muammolarini gavdalantirdi hamda Otabek, Kumush, Mirzakarim qutidor, Yusufbek hoji kabi obrazlarni milliy xarakterlar darajasida jonlantirishga erishdi.

Romanni o‘rganish jarayonida shunga amin bo‘lamizki, bu roman tom ma’noda o‘zbek xalqi farzandlariga milliy ruh hissini oilada singdirishga harakat qiladi. Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov “Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, xech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir” deb bejiz aytmaganlar.

Romanni milliyligini ta’minlagan omillardan yana bir asar tili ekanligini unutmaslik kerak. Demak, romanni tahlil qilishda asar qahramonlarini o‘rganish bilan birga, adabiy qahramon tiliga e’tibor qaratish kerak.



Demak, adibning bu romani orqali, undagi “muallif obrazi”ga tayanib uning o‘z davriga munosabatini, davr muammolariga nisbatan qarashlarini anglash mumkin. Adib o‘z romani orqali nafaqat tarixiy davrni va o‘sha davr hayotiga oid maishiy masalalarni, balki insoniy muhabbatga, oila qurishga bo‘lgan o‘z munosabatidan kelib chiqib, milliy muammolarni badiiy tadqiq etgan. Milliy zaminda unib–o‘sgan an’analar, urf–odatlar, milliy axloq, odob, madaniyatning

kishilar ruhiy olamiga ta'siri va ana shu milliylik ularning ma'naviy go'zalligini ta'minlaganligini o'z qarashlariga mos qahramonlar timsolida ko'rsatishga erishgan. Har bir xalq milliy qadriyatlari, o'ziga xos milliy tafakkuri, hayot tarzi bilan boshqa millatlardan farq qilishini Otabek, Kumush, Qutidor, Yusufbek hoji, O'zbek oyim, Oftob oyim timsolida yorqin his qilamiz.

Fikrimizni isboti sifatida romanga murojaat qilamiz: “– O'g'lim, hali san eshitdingmi, yo'qmi haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo'ydiq...

Otabek ma'lumki, ularning “qilib qo'ygan yoki qilmoqchi bo'lg'an ishlarini”, albatta, bilar edi. Shundoq bo'lsa ham bilmaganga solindi:

“Aqllik kishilarning o'g'ullari ustidan qilg'an ishlari, albatta, noma'qul bo'lmas”, –dedi.

Otabekning otasiga bergan ushbu javobi orqali ham ota–onasiga bo'lgan hurmatini va faqatgina o'zbek mentalitetiga xos andishani yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Yoki Kumushning o'limidan oldin bemor xolatida yotganida oldiga qaynotasi Yusufbek xoji kirgandagi quyidagi holatga e'tiborimizni qaratsak: “Ko'zini ochib besaranjon unga nazar tashladi va tanib...qo'zg'almoqchi bo'ldi”. O'zbek qizlariga xos ibo, hayo ushbu parchada o'z aksini topgan.

“....Qayin ota va qayin onalaringga xizmat qil, yaxshiliqni qo'lingdan berma, ayniqsa, kundashingga yomonliq sog'inma...” .

Oftoboyimning qizi Kumushga qilgan ushbu nasihatlar nafaqat o'sha davr, balki hozirgi kun uchun ham asqotadi. Oftob oyimning bu nasihatlarida o'zbek onalarining qizlariga beradigan go'zal sharqona tarbiyasi aks etgan.

O'zbek xalqi mehmondo'st, bolajon xalq. “O'tkan kunlar” asarida ham Abdulla Qodiriy xalqimizga xos mehmondo'stlik tuyg'usini mohirona tarzda tasvirlagan:

“...O'zbek oyim qo'shni xotinlardan bir nechasini hasharga aytib, hammani joy–joyig'a qo'ydirg'an havli yuzini ham yog' tushsa yalag'undek holga keltirgan edi. Ammo o'z uyini bo'shatdirib, gilam soldurg'on, qudalarning ziyofati uchun kerak bo'lg'an hamma narsalarni ham hozirlatqan, ular kelib tushdi deguncha

bo‘g‘izlatish uchun deb bir g‘o‘non qo‘yni og‘ilning ustuniga qantattirib qo‘yg‘on edi.”

O‘quvchilarga tarqatma materiallar tarqatib ularni faoligini oshirish kerak. Taxminan shunday savollar berish mumkin:

1– topshiriq

Abdulla Qodiriy ayrim obrazlarning o‘ziga xosligini ko‘rsatish uchun ularning nutqiga ayricha ahamiyat beradi. Buni aniq misollar vositasida ko‘rsatib bering.

2– topshiriq

Asarda qahramonlarning ruhiy holati tasviri ustivor mavqe tutadi. Ulardan eng xarakterlilarini, portret tasviri yordamida aks etganlarini belgilang va ularni izohlab bering.

3 – topshiriq

Kumush, Otabek, Yusufbek hoji haqida aytilgan “bo‘yab berilgan”, “osmon go‘zali” degan mulohazalarini qanday izohlash mumkin? Bugun ham shu bahoda muqim qolish mumkin deb o‘ylaysizmi?

4– topshiriq

Yozuvchi asar bosh qahramonlariga nega aynan Yusufbek hoji, O‘zbek oyim, Otabek, Mirzakarim qutidor, Oftoboyim, Kumush ismlarini tanlagan?

5– topshiriq

“Bu ikki kishining bittasi gavdaga kichik, yuzga to‘la, ozroqqina soqol – murtlik, yigirma besh yoshlar chamaliq bir yigit bo‘lib, Marg‘ilonning boylaridan Ziyo shohichi deganning Rahmat otliq o‘g‘lidir, ikkinchisi: uzun bo‘ylik, qora cho‘tir yuzlik, chag‘ir ko‘zlik, chuvoq soqol, o‘ttiz besh yoshlarda bo‘lg‘on ko‘rimsiz bir kishi edi. Bu yigit yaxshigina davlatmand bo‘lsa ham lekin shuhrati nima uchundir boylig‘i bilan bo‘lmay, “Homid xotinboz” deb shuhratlangan”.

Qo‘lingizdagi asar matnidan olingan portret tasviri orqali yozuvchi Abdulla Qodiriy uslubi va mahoratiga oid qanday mulohaza bildira olasiz?

6– topshiriq

“Og‘ir tabiatlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshlik va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yog‘idan, ham ega jihatidan diqqatni o‘ziga jalb etarlik edi. Qandog‘dir bir xayol ichida o‘lturg‘uchi bu yigit Toshkandning mashhur a‘yonlaridan bo‘lg‘on Yusufbek hojining o‘g‘li – Otabek”.

Nima uchun Qodiriy romanning ilk sahifasidanoq xilma–xil qahramonlar portretlarini yaratishga intilgan?

7– topshiriq

To‘q (qoramtir) ranglar qahramonlar (Homid, Sodiq, Jannat) qiyofasi va ruhiyatini tasvirlashda yetakchilik qilishi sababini izohlay olasizmi?

8– topshiriq

Portret tasvirini yaratishda Qodiriy qahramon yuzini, kiyimlarini qanday ranglardan foydalanib tasvirlagan?

9– topshiriq

Romanda tabiat tasviridan yozuvchi qanday maqsadda foydalangan deb o‘ylaysiz?

10– topshiriq

Siz ikki sevimli qalb tuyg‘ulari bitilgan maktublar orqali Otabek va Kumush xarakterining qaysi jihatlarini bilib oldingiz?

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarqatma materiallarga qo‘yiladigan bosh maqsad: ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki shaklda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish, bo‘lganligi uchun ham o‘quvchilarning fikrlash salohiyatini, mantiqiy tafakkurini o‘stirishga xizmat qiladigan ilg‘or ta‘lim usullari va vositalaridan o‘rinli foydalanish zarur. Bu jarayonning samarasi har bir darsda o‘qituvchi-o‘quvchi-o‘quv qurollari va vositalari munosabatlarining qanday yo‘sinda tashkil etilishiga bog‘liq.

XULOSA

Mustaqillik davri adabiy ta'limining yetakchi maqsadlaridan biri, o'quvchi ma'naviyatini yuksaltirish tashkil etganligi uchun ham ijodkor hayoti haqidagi ma'lumotlarni o'rgatish vositasida yoshlarda yaratuvchilik, bunyodkorlik xislatlarini tarkib toptirish, ijodkor shaxsiga xos namunaviy sifatlar ta'sirida o'quvchilarning ilmga, san'at va adabiyotga mehrini o'stirishdan iborat ekan, ushbu risolamiz shu yo'ldagi bir urinishimiz namunasidir.

Umumta'lim maktablarining V-IX sinflarida Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o'rganishga, ya'ni tarjimai holi va "Uloqda" hikoyasi, "Mehrobdan chayon", "O'tkan kunlar" romanlarini imkon qadar adabiyot o'qitish metodikasi qoidasiga xos uslubda o'rganishga harakat qildik.

Yuqoridagi tahlilardan ham ko'rinib turibdiki, yozuvchi o'z badiiy asarida hayotning muayyan jihatlarinigina gavdalantirar ekan, o'zining qarashlari, bilimi, ongi, tuyg'ulari, xarakterini asar qahramonlari, ularning xatti-harakatlari, kurashu intilishlariga namoyon etar ekan, Abdulla Qodiriy asarlarini o'rganish orqali, ularni ma'naviy omil tarzida qarash ta'limni qiziqarli qilib, uning samaradorligini oshirishini, shu bilan birga, yozuvchining qalb haroratini, tuyg'ulari va ruhiyatini his qilishga o'rgatish vositasida o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirishga erishiladi, degan xulosaga keldik.

Chunki, badiiy asar adabiy talqin vositasida yaxlit holda tasavvur qildiriladi, o'quvchining obrazlar mohiyatini tushunishiga erishiladi. Talqinchi-o'qituvchi badiiy asar haqida asosli, mantiqiy, izchil mulohaza yuritishga o'quvchini yo'llashi muhim ahamiyatga ega. Talqin qanchalik ehtirosli, jozibali, haroratli bo'lsa, shunchalik ta'sirchanlik kasb etadi. Talqin o'quvchini badiiy asarni o'qish, o'zlashtirish va tahlil qilishga yo'llash vositasigina bo'lib qolmay, ijodkor qiyofasini o'quvchi ko'z o'ngida jonli tasavvur etilishida, ijodkor e'tiqodi mohiyatini, nuqtai nazari bilan badiiy tafakkurining o'ziga xos qirralarini ilg'ab, tushunib olishlarida ko'mak beradi.

Demak, shu ma'noda adabiyot o'qituvchilari talqinchi mahoratini egallashlari zarur. Adabiy tahlil vositasida esa badiiy matn mohiyatiga kirib boriladi, o'quvchilarda

tahlil malakasini shakllantirish natijasida ijodkorning o‘ziga xos badiiy olamini o‘rganish malakasi tarkib toptiriladi.

Shu bilan birga, adabiy ta’limga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni olib kirish, yozuvchi hayoti va ijodini o‘rgatishda loyihalashtirilgan dars ishlanmalaridan, interfaol, “aqliy hujum”, “klaster”, “birgalikda o‘qiymiz” texnikasi, blist o‘yini, zig–zak metodi, og‘zaki bayon, insert, venn diagrammasi, tarmoqlash va boshqa metod va usullardan foydalanish yuqori samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5–jild. –T.: O‘zbekiston, 1997. – 384 b.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: Sharq, 1998. – 31 b.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. – B. 32–61.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997. – B. 20–29.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. (Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T. : O‘zbekiston, 1997. – 214 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (1999 yil 16 avgust) // Xalq ta’limi J. 1999. №5. 4–5 b.
7. Abduqodirov A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari // Uzluksiz ta’lim j. – 2002. №4. – 60–73 b.
8. Adabiyot o‘qitish metodikasi (Universitetlar, pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari uchun dasturiy qo‘llanma.) Tuzuvchilar: Q. Yo‘ldoshev, O. Madayev, A. Abdurazzoqov. T.: 1994. –B. 94.
9. Aliyev A. Maktabda yozuvchi uslubini o‘rganish. –T.: O‘qituvchi, 1997. – 88 b.
10. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktablarida o‘qitish metodlari. – T.: O‘qituvchi, 1990. – 232 b.
11. Boboniyozov A. Yu. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida tasviriy vositalar va til badiiyati”. Fil. fan. nomz. avtoreferati. –T.: 1995. – 23 b.

12. Inson baxt uchun tugʻiladi: Oʻzbekiston Prezidenti Islom Karimovning hikmatli soʻzlaridan / Tuzuvchilar: D. Gʻaniyev., Z. Gʻafurov. – T.: Sharq, 2001. – 49 b.
13. Zunnunov A. Badiiy asar tahlili metodikasi. –T.: Oʻqituvchi, 1989. – 120 b.
14. Milliy istiqlol mafkurasini va taraqqiyot. / X. Boboyev va boshq. – T.: Yangi asr avlodi, 2001. – 211 b.
15. Matjonov S. Uzluksiz taʼlim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish usullari. T.: Oʻqituvchi, 1995. –96 b.
16. Matjonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. Oʻquv qoʻllanma. T.: Oʻqituvchi, 1997. – 297 b.
17. Matchonov S. Kitob oʻqishni bilasizmi: –T.: Oʻqituvchi, 1993. – 114 b.
18. Mirqosimova M. Oʻquvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Monografiya. –T.: Fan, 2006. –112 b.
19. Musurmonova O. Yuqori sinf oʻquvchilari maʼnaviy madaniyatini shakllantirishning samarali shakl va metodlari. –T.: Fan, 1995. –200 b.;
20. Musurmonova O. Adabiyot darslarini tashkil etishning samarali shakllari. – T.: Oʻqituvchi, 1993. –78 b.
21. Niyozmetova R. XX asr oʻzbek adabiyotini oʻqitish mazmunini belgilash masalalari. –T.: TDPU, 2000. –105 b.
22. Niyozmetova R. Uzluksiz taʼlim tizimida oʻzbek adabiyoti oʻrganish metodikasi. –T.: Fan, 2007. –215 b.
23. Ochil S. Mustaqillik maʼnaviyati va tarbiya asoslari: (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, akademik I.A.Karimov asarlari misolida). 2-toʻldirilgan va qayta ishlangan nashri.. –T.: Oʻqituvchi, 1997. –256 b.;
24. Rasulov A.R. Tanqid, talqin, baholash. –T.: Fan, 2006. – 232 b.
25. S.Ahmedov, Qosimov B,R.Qoʻchqorov, Sh.Rizayev. Adabiyot 5–sinf uchun darslik– –T.: “Sharq”,2007. – b.
26. Toʻxliyev B. Adabiyot. Akademik litsey va kasb–hunar kollejlari uchun darslik. –T.: Oʻqituvchi, 2002. – 288 b.

- 27.To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 152 b.
- 28.Uzluksiz adabiy ta‘lim yo‘rig‘i (konsepsiyasi) Muallif: Q.Yo‘ldoshev. –T.: O‘zPFITI, 1995. – 22 b.
- 29.Uzluksiz adabiy ta‘limining davlat o‘lchamlari. // Mualliflar: Q. Yo‘ldoshev, Q. Husanboyeva. – T.: O‘zPFITI, 1996, – 24 b.
- 30.Umumiy ta‘lim mazmunini tanlashning didaktik shartlari. Metodik tavsiyalar. –T.: RTM, 1994, – 38 b.
- 31.Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5–9 sinflari uchun adabiyotdan rejalashtirish. –T.: 2004. – 24 b.
- 32.Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat ta‘lim standarti. //Xalq ta‘limi j. 1999. 5–son. 6–36 b.
- 33.Umumta‘lim maktablarining 5–11–sinflari uchun adabiyotdan o‘quv dasturi// Ma‘rifat, 2006. 4,7,11.X.
- 34.O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta‘limni tashkil etish to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 may 203–sonli qarori // Ta‘lim taraqqiyoti. 1998. – №1 – B. 77–81.
- 35.Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy–nazariy asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1996. – 151 b.
36. Yo‘ldoshev Q.,Qosimov B.,Qodirov V.,J.Yo‘ldoshbekov. Adabiyot. Umumta‘lim maktablarining 7–sinfi uchun darslik majmua.–T.: Sharq, 2009.– b.
- 37.Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., J.Yo‘ldoshbekov. Adabiyot. Umumta‘lim maktablarining 9–sinfi uchun darslik. –T.: Yangi yo‘l poligrang, 200. – b.
- 38.Husanboyeva Q. Adabiy ta‘limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari. –T.: O‘zinkomsentr, 2003. – 103 b.
- 39.<http://caute.ru>
- 40.www.ziyouz.com
41. www.ref.uz
- 42.www.adabiyot.uz

- 43. www.ziyo.net
- 44. www.lib.uz
- 45. www.mushtum.uz
- 46. <http://goprom.ru>

ILMIY Yangiligi

Abdulla Qodiriyning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni adib hayoti va ijodini umum ta'lim maktablarida o'qitishning ilg'or usullari ilmiy ish yangiligini tashkil etadi.

Adabiy ta'limga ilg'or pedagogik texnologiyalarni olib kirish, yozuvchi hayoti va ijodini o'rgatishda loyihalashtirilgan dars ishlanmalaridan, interfaol, "aqliy hujum", "klaster", "birgalikda o'qiyamiz" texnikasi, blit o'yini, zig-zak metodi, og'zaki bayon, insert, venn diagrammasi, tarmoqlash va boshqa metod va usullardan foydalanish yuqori samara berishi haqidagi ilmiy qarashlar tadqiqot ishininh ilmiy yangiligini tashkil etadi.

